

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING  
BUYRUG'I**

**SHNQ 2.09.13-22 "YER OSTI KON LAHIMLARINI LOYIHALASH" SHAHARSOZLIK  
NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 17-fevralda hisobga olindi,  
hisob raqami 149]**

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik **kodeksiga** muvofiq buyuraman:

1. ShNQ 2.09.13-22 "Yer osti kon lahimlarini loyihalash" shaharsozlik normalari va qoidalari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Vazir B. ZAKIROV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 30-dekabr,  
260-son  
**Kelishildi:**

**O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati  
boshlig'i B. YuSUPALIYEV**

2022-yil 16-noyabr

**O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi B. GULYAMOV**  
2022-yil 24-noyabr

**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi  
N. OBLOMURADOV**

2022-yil 21-noyabr

**O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasining raisi B.  
ISLOMOV**

2022-yil 22-noyabr

**Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV**

2022-yil 21-noyabr

## **ShNQ 2.09.13-22 “Yer osti kon lahimlarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari**

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (keyingi o‘rinlarda — ShNQ) yangi, rekonstruksiya qilinadigan va kengaytiriladigan foydali qazilmalarini kavlab oluvchi korxonalarda yer osti kon lahimlarini loyihalash tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar**

1. Ushbu ShNQda quyidagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar keltirilgan:

ShNQ 1.02.07-19 “Qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar. Qoidalari to‘plami”;

QMQ 2.03.01-96 “Beton va temirbeton konstruksiyalar”;

ShNQ 2.03.05-13 “Po‘lat konstruksiyalar. Loyihalash me’yorlari”;

QMQ 2.03.08-98 “Yog‘och konstruksiyalar”;

GOST 27751-2014 “Qurilish konstruksiyalari va poydevorlarining ishonchliligi. Asosiy qoidalari” (rasmiy manba: GOST 27751-2014 “Nadejnost stroitelnix konstruksiy i osnovaniy. Osnovnie polojeniya”);

GOST 26633-2012 “Og‘ir va kichik tanali betonlar” (rasmiy manba: GOST 26633-2012 “Betoni tyajelie i melkozernistie”);

ShNQ 4.02.13-04 “Qurilish konstruksiyalari va jihozlarini korroziyadan himoya qilish”;

GOST 9.602-2005 “Korroziya va eskirishdan himoya qilishning yagona tizimi. Yer osti inshootlari. Korroziyadan himoya qilish uchun umumiy talablar” (rasmiy manba: GOST 9.602-2005 “Edinaya sistema zaščiti ot korrozii i stareniya. Soorjeniya podzemnie. Običjuje trebovaniya k zaščite ot korrozii”);

SNiP 2.06.14-85 “Yer osti kon lahimlarini yer osti va yer usti suvlaridan himoya qilish” (rasmiy manba: SNiP 2.06.14-85 “Zaščita gornix virabotok ot podzemnix i poverxnostníx vod”);

ShNQ 2.01.09-19 “Cho‘kuvchan va o‘ta cho‘kuvchan gruntli hududlarda quriladigan bino va inshootlar”;

QMQ 2.03.07-98 “Tosh va o‘zaktoshli qurilmalar”;

QMQ 2.01.07-96 “Yuklar va ta’sirlar”.

### **2-bob. Atamalar va ta’riflar**

2. Mazkur ShNQda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llanilgan:

kon laими — kon qazish ishlari natijasida yaratilgan va funksional maqsadini bajarish, uni ma’lum vaqt davomida saqlab turish uchun tog‘ jinsi massividagi bo‘shliqni ifodalovchi yer osti yoki yer yuzasidagi inshootlar;

anker mustahkamlagich — yer osti kon laими chegarasida butun uzunligi bo‘ylab yoki uning muhim qismlarida burg‘ulangan shpur va burg‘ilash qudug‘ining oxirida (qulfdha) joylashtirilgan temir novda yoki temir arqon bo‘lgan mustahkamlagich turi;

shaxta stvoli — yer yuzasiga tutashgan tik va asosiy yer osti kon laими;

shamollatish — kon ishlarida inson salomatligi va mehnat faoliyati uchun qulay havo muhitini yaratish maqsadida amalga oshiriladigan havo almashinushi;

qazish maydoni — qazish maydonining bitta pastki bosqichida va bitta qanotida joylashgan bir plastning joylashuvi (qazish maydoni gorizontal foydali qazilma konlarini qazib olish bosqichida foydali qazilmalar ustuni shtrekklar bilan chegaralangan hududni bildiradi);

gezenk — yer yuzasiga chiqmagan va o‘z massasi kuchi ta’sirida yoki mexanik yo‘l bilan maxsus idishlarda foydali qazilmani yuqoridaan pastga tushirish uchun mo‘ljallangan vertikal kon laimi;

dizyunktiv (uzlukli) geologik buzilishlar — tektonik jarayonlar davomida yuzaga keladigan va tog‘ jinsi massivining ajratilgan qismlarining nisbiy harakati bilan belgilanadigan tog‘ jinslari massasining doimiyligini buzish;

zumpf — kon lahimining, shaxta stvoli oldi hovlisining pastki qismida joylashgan va yuklash va tushirish uchun mo‘ljallangan ko‘tarish qurilmasini (skip yoki ko‘p qavatli klet) joylashtirish uchun, shuningdek oqib tushayotgan suvni yig‘ish uchun mo‘ljallangan shaxta stvolining bir qismi;

kavitsatsiya — suyuqlikda (suvda) gaz (bug‘) bilan to‘lgan kavitsatsiya bo‘shliqlarning (pufakchalar) hosil bo‘lishi (suyuqlikdagi mahalliy bosimning pasayishi natijasida yuqori bosim maydoniga o‘tishda kavitsatsiya pufakchalari yopilib, zarba to‘lqinini hosil qiladi);

kamera — ko‘ndalang kesim yuzasiga nisbatan kichik uzunlikka ega bo‘lgan, uskunalar yoki sanitariya va boshqa maqsadlarda joylashtirish uchun mo‘ljallangan kon lahimi;

kvershlag — yer yuzasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish imkoniga ega bo‘lmagan gorizontal yoki qiya yer osti kon lahimi (ruda tanasiga perpendikulyar bo‘ylab bo‘sh tog‘ jinslaridan o‘tiladi va transport, shamollatish, odamlar harakati, suv o‘tkazish, elektr kabellari va aloqa liniyalari yotqizish uchun ishlataladi);

mustahkamlagich — barqarorlikni, texnologik xavfsizlikni, shuningdek tog‘-kon bosimini nazorat qilishni ta‘minlash uchun yer osti kon lahimlarida qo‘llanilgan konstruksiya (deformatsiyalari elastik chegaralardan tashqariga chiqmaydigan mustahkamlagichlar “qattiq” deb nomlanadi. Maxsus egiluvchan elementlar tufayli qattiq mustahkamlagichning siljishidan sezilarli darajada oshib ketishiga imkon beradigan mustahkamlagich “egiluvchan” deb nomlanadi. Oraliq xususiyatlarga ega mustahkamlagich “cheklangan egiluvchan” deb nomlanadi);

sochmabeton — cement aralashmasidan bo‘lgan eritmaning siqilgan havosi bilan purkash natijasida hosil bo‘lgan, to‘ldirish fraksiya hajmi 25 mm bo‘lgan va suyuqlikdan iborat material;

kuchlanish — birlik maydoniga to‘g‘ri keluvchi ichki kuchlarning qiymati (tog‘ jinsi massivida, tog‘ ustunlarida, mustahkamlagichlarda va h.k.);

stvololdi hovlisi — shaxta stvolini boshqa barcha kon lahimlari bilan bog‘lash va ba’zi umumiy konlarni ishlab chiqarish xizmatlarini (suv chiqarish, elektr podstansiyasi, elektrovoz garaji, yong‘in uskunalari ombori va boshqalarni) joylashtirish uchun xizmat qiladigan kon lahimlarining majmui;

tozalash ishlari — foydali qazilmani qazib olish maqsadida lahimlarda amalga oshiriladigan tozalash jarayonlari;

plast — cho‘kindi jinslarning gorizontal yoki boshqa qiyalikka ega bo‘lgan, ikki yoki undan kam parallel sirt bilan chegaralangan plastinka shaklida paydo bo‘lgan shakl;

suvga to‘yingan tog‘ jinsi — tarkibida suvi ko‘p tog‘ jinslari;

xavfsizlik ustunlari — foydali qazilma va plastlarda vaqtincha yoki butunlay qazib olinmaydigan foydali qazilma qismi;

ma’dan tushirgich — mustahkamlagich bilan cheklangan va o‘z og‘irligi ta’sirida ruda massasini tushirishga mo‘ljallangan kichik yuzali (1 — 3 m<sup>2</sup>) va kamdan-kam hollarda undan ortiq) vertikal yoki qiya kon lahimi;

skat — har xil turdagи yuklarni o‘z og‘irligi ta’sirida tushirish uchun mo‘ljallangan qiya kon lahimi;

tamponlash — tog‘ jinslaridagi yoriqlar, bo‘shliqlar va teshiklarni sun’iy ravishda tamponlash eritmalari (sement, kimyoiy birikmalar va boshqalar) bilan to‘ldirish jarayoni (bu ularning mustahkamligini, barqarorligini oshirish va suv va gaz o‘tkazuvchanligini kamaytirish maqsadida bajariladi);

tektonik kuchlanish — yer qobig‘i va yuqori mantiyadagi tektonik harakatlar natijasida hosil bo‘lgan tog‘ jinslarning kuchlanganlik holati;

tyubing — ikki yoki undan ortiq qattiq aylana qovurg‘alardan iborat bo‘lgan mustahkamlagichning elementi;

shtolnya — yer yuzasiga bevosita tutashgan, yer osti kon ishlariga xizmat ko'rsatish, shuningdek ruda tanasiga gorizontal yoki qiya yuqori bo'lmanan nishablikka ega bo'lgan yer osti kon lahimi;

shtrek — qiya burchakli foydali qazilma konining uzunligi bo'ylab yoki uning gorizontal holatida turli yo'nalishda o'tkazilgan gorizontal yer osti kon lahimi;

shurf — yer yuzasidan boshlanuvchi kichik yuzali vertikal yoki kam hollarda qiya bo'lgan yer osti kon lahimi.

### **3-bob. Umumiy qoidalar**

3. Mazkur ShNQ mavjud bino va inshootlarning poydevorlarini siqilgan qalinligida qurilgan yer osti kon lahimlarini (bundan buyon matnda lahimlar) loyihalashga tatbiq etilmaydi.

4. Lahimlarni loyihalashda hajmiy-rejali va loyihalash yechimlarini, qurilish materiallari va texnik vositalarni tanlash, ularning butun ishlab chiqarish muddati davomida insonlarning yong'in xavfsizligini ta'minlashi lozim.

5. Tog' jinsi massividagi gorizontal kuchlanish kattaligi bilan tektonik kuchlanish (tog' bosimi yuqori) yuqori bo'lgan zonalarda yoki maxsus tog'-kon o'tish lahimlari vositalari yordamida qurilgan lahimlarni loyihalash ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Lahimlar ularning maqsadi, vazifasi, foydalanish muddati va xavfsizligini hisobga olgan holda quyidagi **1-jadvalga** muvofiq loyihalashtirilishi lozim.

Lahim sinfi	Lahimlarning nomlanishi	1-jadval
1.	Asosiy ochuvchi lahimlar (vertikal va qiya stvol, shtolnya, qiya transport yo'lagi)	Foydali qazilmalarni kavlab oluvchi korxona ishlarining to'xtashi
2.	Gorizontning asosiy stvololdi va magistral lahimlar (shtrek, kvershlag)	Alovida gorizont ishini to'xtashi
3.	Magistral, uchastka va panel lahimlar (uchastka kvershlagi, nishab, bo'sh tog'-jinsidan o'tilgan lahimlar, ma'dan tushirgichlar, shamollatish tik lahimlar)	Alovida maydon ishining to'xtashi
4.	Yordamchi stvololdi va uchastka lahimlari	Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlashuvi, ish xavfsizligi, kavjoylarda ishning to'xtatishi

7. Dinamik ta'sirlar va ko'mirning o'z-o'zidan yonishi sharoitida lahimlarni loyihalash ilmiy-tadqiqot ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi lozim.

8. Vaqtinchalik (qurilish davrida) lahimlarni loyihalashda ushbu ShNQda ko'rsatilgan talablarga rioya qilinishi lozim. Mazkur vaqtinchalik lahimlardan foydali qazilmalarni kavlab oluvchi korxonaning (bundan buyon matnda korxona) keyingi faoliyati davomida maksimal darajada foydalanimishi lozim.

9. Texnik xizmat ko'rsatish sharoitlari qiyin bo'lgan uchastkalarda joylashgan asosiy lahimlarning loyiha hujjatlari tarkibida, ushbu lahimlarga zarar yetishi oqibatida butun korxonaning to'xtashiga olib keladigan bo'lsa, nazorat moslamalari va o'lchash stansiyalarni o'rnatish nazardautilishi kerak. O'lchov maydonining o'lchamlari, o'lchov vositalarining soni, chastotasi, o'lchovlarning davomiyligi ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida aniqlanishi kerak va uskunalar portlash uchun xavfsiz bo'lishi kerak.

10. Resurs tejovchi bosqichma-bosqich mustahkamlanuvchi lahimlarni loyihalashda lahimlardagi tog' jinslarining siljish jarayonini kuzatish olib borilishi kerak (lahimning shift va devor siljishini aniqlash). Siljishlarni aniqlash usullari ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida aniqlanishi kerak va qurilmalar portlash uchun xavfsiz bo'lishi kerak.

11. O‘ta kuchlanishli yoki zaiflashgan tog‘ jinsi massivida lahimlarni loyihalash massivning barqarorligiga qarab tasniflash asosida, shuningdek dala tadqiqotlari bilan belgilanadigan amaldagi kuchlanishlarning qiymatlari va yo‘nalishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

#### **4-bob. Muhandislik-geologik tadqiqotlar**

12. Lahimlarni loyihalash va qurish uchun ushbu ishlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarga asosan muhandislik-geologik tadqiqotlar ShNQ 1.02.07-19 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

13. Lahimlarni loyihalashda muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

dizyunktiv (uzlukli) geologik buzilishlar parametrlariga ko‘ra, tektonofizik tahlil asosida olingan lahimlarning prognoz qilinadigan joylarida buzilmagan massivdagi kuchlanish holatining xususiyatlari (asosiy kuchlanishlarning qiymatlari va yo‘nalishlari), tog‘-kon sohasidagi mavjud ishlarda bo‘sh tog‘ jinsidan o‘tilgan lahimlar o‘lchovlari ma’lumotlari;

loyihalashtirilgan lahimning rejulashtirilgan joylashuv geomorfologiyasi, shu jumladan stratigrafiya va tog‘ jinsi massivining tektonikasi va yer yuzasining topografiya ma’lumotlari;

tog‘ jinsi massivining litologik xususiyatlari;

tog‘ jinsi massivining mexanik xossalari sinash natijalari;

tog‘ jinsi massivining gidrogeologik xususiyatlari, uning tarkibidagi gaz xususiyatlari va geokriologik ma’lumotlar.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni detallash darajasi loyihalanayotgan lahim joyiga yaqinlashgan sari qidiruv burg‘ulash quduqlarining to‘rini ixchamlashtirish yo‘li bilan amalga oshirish kerak.

Tog‘ jinsi massivining tuzilmaviy buzilishini o‘rganish yo‘naltirilgan burg‘ulash ma’lumotlariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

14. Lahimlarni loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlar:

geologik qidiruv (dastlabki, batafsil, razvedka oldi qidiruv) va marksheyderlik-geodezik tasvirlar natijalari bo‘yicha mavjud fond ma’lumotlaridan foydalanish;

muhandislik va gidrogeologik izlanishlarning geologik, gidrogeologik ishlarini, shu jumladan loyihalanayotgan lahimlarning mo‘ljallangan joylarida bevosita injenerlik va gidrogeologik quduqlarni burg‘ulash ishlarini amalga oshirish orqali olinadi.

Muhandislik-geologik tadqiqotlarini o‘tkazishda quyidagilarni burg‘ulash ko‘zda tutilishi lozim:

loyihalanayotgan har bir vertikal lahimlar uchun vertikal nazorat-stvol burg‘ulash quduqlari;

gorizontal va qiya magistral lahimlarning markaziy chiziqlari bo‘ylab vertikal va qiya burg‘ulash quduqlari;

loyihalanayotgan lahim tog‘ jinsi yotishiga perpendikulyar yo‘nalishi bo‘yicha gorizontal yetakchi burg‘ulash quduqlari.

15. Tog‘ jinsi massivining tarkibi to‘g‘risidagi stratigrafik va tektonik ma’lumotlar, shuningdek ularning litologik tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosan ochuvchi lahimlar o‘tkaziladigan joylar yaqinida joylashgan burg‘ulash quduqlar va quduqlar to‘rida mavjud geologik qidiruv materiallaridan o‘rnatalishi kerak.

Ushbu ma’lumotlar muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari asosida olingan ma’lumotlardan aniqlashtiriladi va nazorat qilinadi.

Keltirilgan ma’lumotlar marksheyderlik tarmog‘iga bog‘langan bo‘lishi va barcha litologik jihatli turli plastlar, qatlamlar va morfologik elementlarning paydo bo‘lish parametrlarini (chuqurlik, qalinlik, yotish burchagi, yotish azimutlari, chidamlilik), shuningdek massivni qazib olish, uning siljishi va deformatsiyalari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Tog‘ jinslarining litologik xarakteristikalari intervaldagи plastlar (qatlamlar) uchun, stratigrafik va tektonik ma’lumotlar uchun belgilangan aniqlik bilan berilishi kerak. Ushbu xususiyat konda (havzada) mavjud bo‘lgan tog‘ jinslarining litogenetik turlarining tasniflarini, shuningdek ushbu turni belgilaydigan xususiyatlarni hisobga olgan holda tog‘ jinslarning turi va nomini belgilashni o‘z ichiga oladi.

Vujudga kelish parametrlari, shuningdek ekstruziya va ko‘tarilishga moyil bo‘lgan zaif qatlamlar va oraliq qatlamlarning moddiy tarkibi va tuzilmaviy buzilishi, shuningdek past darajadagi bog‘lanishga ega bo‘lgan morfologik elementlarning kontaktlari (siljish oynalari, yoriqlar, sinishlar) batafsil aniqlashtirilishi kerak.

Muhandislik-geologik tadqiqotlar materiallarida qidiruv burg‘ulash quduqlarini tamponlash, shuningdek ilgari o‘tilgan lahimlarning mavjudligi va holati to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

16. Tog‘ jinslarining fizik mexanik xususiyatlari va tarkibiy buzilishi yuzaga kelish qalinligi bo‘yicha quyidagi oraliqlarda aniqlanishi kerak:

lahimning rejalahtirilgan joylashuv gorizontidan 20 m gacha va undan 10 m gacha qalinligi 0,3 m dan ortiq bo‘lgan barcha qatlamlar, plastlar va 0,1 m dan 0,3 m gacha bo‘lgan qatlamlarning litotiplari uchun batafsil oraliqlarda;

konning rejalahtirilgan joylashuv gorizontidan 20 m dan 100 m gacha va 10 m dan 30 m gacha qalinligi 1 m dan ortiq bo‘lgan qatlamlarining barcha mavjud litotiplari uchun kattalahtirilgan oraliqlarda.

Vertikal nazorat-burg‘ulash quduqlari uchun burg‘ulash oralig‘ida tog‘ jinslarning fizik-mexanik xususiyatlarini va tarkibiy buzilishini batafsil o‘rganish kerak.

Barcha o‘rganilgan qatlamlar, plastlar, nimqatlamlar va morfologik elementlar uchun kerna namunalarining mexanik sinovlari va tog‘ jinslarning bir markazli siqilishga chidamliligining o‘rtacha qiymatlari, kesish kuchi, shuningdek o‘rtacha zichlik chegarasi, tabiiy namlik, suv o‘tkazuvchanligi, yopishqoqlik koeffitsiyenti, ichki ishqalanish burchagi, elastiklik moduli va Puasson koeffitsiyenti o‘rganilishi kerak.

Tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha texnik topshiriqda ko‘rsatilgan jinslarning alohida qatlamlari uchun quyidagilarni aniqlash kerak:

tortishishga mustahkamlik chegarasi;

massivning yuqori kuchlanishlik shartlari uchun mustahkamlik pasporti;

shishish;

sudralish va oqimga moyil tog‘ jinslarning reologik xususiyatlari;

plastik va zaif jinslarning yon tomonga kengayish (shu jumladan uzoq muddatli) qiymati;

vertikal va qiya stvollarda loy va qumli, shuningdek katta bo‘shliqlari bilan qoyatoshli va yarim qoyatoshli bo‘lgan jinslarda suvni kamaytirish ehtimoli bilan siqilish koeffitsiyentlari;

suv chiqishi kam bo‘lgan “haqiqiy suvga to‘yingan tog‘ jinsi” chiqishi bilan suvli qum va nam loylarning suvga to‘yingan tog‘ jinsi xususiyatlari.

Chuqrburg‘ulash quduqlarining kernlaridan gil va boshqa zaif jinslarning mustahkamligi va deformatsiya xususiyatlarini aniqlashda, ushbu ko‘rsatkichlar qiymatlarining sezilarli darajada pasaytirilganligi va lahimda olingan namunalardan aniqlashni talab qilishini hisobga olish kerak.

Murakkab vaziyatlarda tog‘ jinslarining xususiyatlarini aniqlashda va ulardan foydalanishda ShNQ 1.02.07-19 ga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlari asosida olib borilishi kerak.

Tog‘ jinslarning tarkibiy buzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuqoridagi intervalar uchun ularning kerni tomonidan o‘rnatalishi kerak. Yoriq tizimlarining soni, genetik turi va morfologiyasi, ularning chastotasini baholash, fazodagi joylashuvi, uzilish, ochilish qiymati va yoriqlarning ulanish darjasasi, biriktirgichning mavjudligi va tarkibi hamda past ulanishga ega sirtlarning mavjudligi aniqlanishi kerak.

17. Gidrogeologik ma’lumotlar asosan quduqlar tarmog‘i uchun mavjud geologik qidiruv materialari asosida tuzilishi kerak. Ushbu ma’lumotlar muhandislik-geologik tadqiqotlar doirasida qazilgan quduqlar bo‘yicha qo‘srimcha hidrogeologik ishlari va tadqiqotlar natijalari asosida aniqlashtiriladi va nazorat qilinadi.

Gidrogeologik ma’lumotlarda suv qatlamlarining joylashishi va qalinligi, loyihalashtirilgan lahim o‘rnida tog‘ jinslarining suvga to‘yinish darjasasi, hidrostatik va hidrodinamik bosim, suvlarning kimyoviy tajovuzkorligi xususiyatlari, suv to‘siqlarining joylashishi va xususiyatlari, suv qatlamlarini yetkazib berish va suv haydash shartlari, suv qatlamlarining suv bosimlari, ularning filtrlash qobiliyati va yer usti suvlarini va suv omborlari bilan aloqasi, karstlar va suvga to‘yingan tog‘ jinslarning joylashuvi va xususiyatlari keltiriladi.

## **5-bob. Qurish va konstruktiv yechimlar**

### **1-§. Asosiy qoidalar**

18. Lahimlarining joylashishini tanlash atrofdagi tog‘ jinslarining barqarorligini, shuningdek korxonadagi barcha lahimplar majmuasining umumiyl joylashish yechimlarini hisobga oлган holda amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, to‘g‘ridan to‘g‘ri tog‘ jinsi massivning tektonik buzilishi, karstlar va suvgaga to‘yingan tog‘ jinslari joylarida yotqizishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Lahimplarning lahim yuza qismini hisoblashda, mustahkamlagich va mustahkamlagich orti materialining qalinligidan tashqari, tog‘ jinslarining siljishi qiyamatlarini hisobga olish kerak. Qurilishdan oldingi davr va egiluvchan, shu jumladan anker mustahkamlagich lahimning butun ish faoliyati uchun yoki mustahkamlagichning egiluvchanlik bo‘lgan davr uchun qo‘llaniladi.

19. Lahimning ish holatini saqlash va xavfsiz ta‘minlash sharoitlarini yaxshilash uchun ular barqaror tog‘ jinslarida joylashgan bo‘lishi kerak (lahim uchun konlarni muhofaza qilish choralarini va mustahkamlagich uchun konstruktiv himoya choralaridan foydalaniladi).

Tog‘-kon muhofaza qilish tadbirlari va konstruktiv himoya choralariga quyidagilar kiradi:  
tozalash ishlarining zararli ta‘sirini istisno qiladigan xavfsizlik ustunlarini qoldirilishi;  
lahimplarning zararli o‘zaro ta‘sirini istisno qiladigan masofalarda joylashishi;

foydali qazilmalarni qazib olishning oqilona tartibda olib borilishi;  
tog‘ jinsi massivining oldindan yuklanmasi kamaytirilgan maydonda lahimplarning joylashishi;

mustahkamlanuvchi maydonni mexanizatsiyalanishi;

tog‘ jinsi massivining dastlabki yoki keyingi mustahkamlanishi;

massiv yuklamasini kamaytiruvchi turli usullar orqali konni o‘rab turgan jinslardagi kuchlanish konsentratsiyasining kamaytirilishi;

mustahkamlash maydoni ortida tamponlash usulidan foydalanilishi;

mustahkamlashda egiluvchan element turlaridan foydalanilishi, tuzli tog‘ jinslarida mustahkamlagich va tog‘ jinsi orasida bo‘sliqlar qoldirilishi.

Lahimplarni tog‘-kon muhofaza qilish va ularning mustahkamlagichlarini konstruktiv himoya qilish choralar kutilgan deformatsiyalarni yoki tog‘ jinslarining siljishini ularning ruxsat etilgan qiyatlari bilan taqqoslash natijalari asosida ko‘rilishi kerak.

20. Mustahkamlagich konstruksiysi, parametrlari va hisob-kitoblarini quyidagi uchastkalar uchun differensial ravishda amalga oshirilishi kerak:

tog‘ jinslarini tozalash ishlari yoki suvni kamaytirishga (deformatsiyalanmaydigan tog‘ jinsi massivi) salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan uchastkalar;

ta‘sir zonalaridagi uchastkalar uchun (deformatsiyalanadigan tog‘ jinsi massivi).

Lahim mustahkamlagichini loyihalashda quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

tog‘ bosimi namoyon bo‘lishining xarakteri va parametrlarini aniqlash;

mustahkamlagich turini va uni qurish texnologiyasini tanlash;

mustahkamlagichning konstruktiv sxemasini tanlash va uni hisoblash.

21. Beton, temirbeton, metall rama va anker mustahkamlagich konstruksiyalari ShNQ 2.03.05-13 va QMQ 2.03.01-96 talablariga muvofiq xavfsiz va uzoq muddatli xizmat ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

Mustahkamlagichning shaklini va parametrlarini tanlashda, shuningdek dinamik yuklarning, aggressiv va yer osti suvlarining qo‘sishimcha ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lgan mustahkamlagichga qo‘yiladigan talablarga rioya qilishda ishlarning suv va gaz izolatsiyasini ta‘minlash zarur.

Lahim mustahkamlagichlari, stvol armirovkasi, uskunalar uchun poydevorlar va yer osti inshootlarining elementlarini aggressiv muhit ta‘siridan himoya qilish lozim.

Agressiv muhitning tajovuzkorlik darajasini aniqlash, shuningdek ularning ta‘siridan himoya qilish choralar ShNQ 4.02.13-04 va GOST 9.602-2005 talablariga muvofiq belgilanishi kerak.

22. Suvli tog‘ jinslarida o‘tilgan lahimplarning loyiha hujjalardan suv haydash, mustahkamlagichlarni gidroisolatsiya qilish, tamponlash va filtrlashga qarshi pardalar yaratish orqali lahimga suv kirishini oldini olish bo‘yicha himoya qilish chora-tadbirlarini nazarda tutilishi kerak.

Yuqoridagi chora-tadbirlardan foydalanish, shuningdek texnik-iqtisodiy asoslash SNiP 2.06.14-85 ga muvofiq maxsusuv o'tkazmas mustahkamlagichini yaratadi.

23. Shaxta stvollarining monolit-beton va temir-beton mustahkamlagich konstruksiyalarida M200 dan past bo'limgan sinfdagi og'ir betondan, boshqa lahimlarda M150 dan past bo'limgan beton qo'llanilishi kerak.

Temir-beton va beton mustahkamlagich konstruksiyalari uchun M300 dan past bo'limgan sinfdagi betondan foydalanish kerak.

24. Sovuqqa va suvgaga chidamliligi uchun betonning loyihaviy sinflari qabul qilingan gidroizolatsiya tizimini yoki mustahkamlagichni korroziyadan himoya qilishni hisobga olgan holda kon joylashgan joyining iqlim va gidrogeologik sharoitlariga qarab va betonning tasnifi va ulardan foydalanish QMQ 2.03.01-96 hamda ShNQ 4.02.13-04 talablariga muvofiq belgilanishi kerak.

25. Armaturali monolit temir-beton mustahkamlagich uchun beton himoya qatlaming minimal qalinligi 30 mm bo'lishi kerak.

26. Blok va tyubingli yig'ish mustahkamlagichining elementlarini o'rnatish vaqtida mustahkamlagich ortida qolgan bo'shlilarni tamponlash uchun teshiklar qoldirilishi kerak.

27. Seysmik hududlarda qurilgan, seysmikligi 7 balldan ortiq bo'lgan temir-beton va beton mustahkamlagichlarda deformatsiya choklari qurilmasini ta'minlash, odatda, turli xil mustahkamlikka ega tog'-jinslari orasidagi yoriqlar yoki kontaktlarni ishlab chiqarish bilan kesishish nuqtalari ularning orasidagi masofalar 30 m dan oshmasligi lozim.

## 2-§. Vertikal lahimlar

28. Vertikal lahimlarning mustahkamlagichlarini hisoblash mazkur ShNQ ning [1-ilovasiga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

Vertikal lahimlar o'rnini tanlash bosh reja va boshqa lahimlar o'rni bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda, shuningdek asosiy va ular bilan birgalikda asosiy foydali qazilmalar zaxiralarining yer qa'ridan to'liq qazib olish imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Vertikal lahimlarni loyihalashda quyidagilarga amal qilish zarur:

chegaralangan suv qatlamlari mavjudligini hisobga olgan holda, yirik tektonik lahimlarni vertikal ishlov berish orqali kesib o'tishga yo'l qo'ymaslik;

shaxta stvollarini foydali qazilmalar paydo bo'lgan joylardan tashqarida, xavfsizlik ustunlarini qoldirib ketmaydigan masofada joylashtirish;

stvollar shaxta maydoni yoki foydali qazilma yotish ustunlari hududida joylashgan bo'lsa, stvolga yaqin stvololdi saqlash ustunlarini maksimal darajada qazish choralarini ko'rish;

stvololdi hovlisini barqaror, mustahkam tog' jinslaridan o'tish imkonini ta'minlash;

tozalash ishlari, suvni tozalash va yaqin atrofdagi yoki ulanuvchi lahimlarga ta'sirini istisno qiladigan yoki kamaytiradigan choralarini ko'rish.

Agar tozalash ishlari qurilgan xavfsizlik tog' ustunlari chegaralaridan tashqarida joylashgan bo'lsa, lahim tozalash ishlari vertikal lahimlar ta'sir zonasidan tashqarida joylashgan deb hisoblanadi.

Agar ular gidrogeologik hisob-kitob bilan aniqlangan konturdan tashqarida joylashgan bo'lsa, vertikal lahimlar suvni kamaytirishning ta'sir zonasidan tashqarida joylashgan deb hisoblanadi.

29. Tuz va kaliy konlarida stvollar suvgaga chidamli tog' jinslari qatlami yoki tuz qatlamlaridan kamida 15 m balandlikda yopiq tosh tuzi bo'lgan joylarda joylashgan bo'lishi kerak.

30. Stvol va shurflarni tashkil qilishda sanitariya himoya zonalari ta'minlanishi kerak.

31. Vertikal stvollar ko'ndalang kesim yuzasi aylana shaklda loyihalanishi kerak. Boshqa vertikal lahimlar, ularning ishslash muddati, maqsadi va qazib olish va geologik sharoitlariga qarab ularga aylana shakldan tashqari shakl berilishi mumkin.

32. Xavfsizlik ustunlaridan foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida ShNQ 2.01.09-19 talablariga binoan lahim mustahkamlagichlarini himoya qilish choralarini boshqa lahimlar hamda yer yuzasidagi bino va inshootlar himoya qilish choralarini bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

33. Vertikal stvollar va shurflar og'izlarining umumiy chuqurligi aniq kon va geologik sharoitlarni hisobga olgan holda hisoblash yo'li bilan aniqlanishi kerak.

Shamollatish va isitish kanallari mavjud bo‘lganda, kanal ostki qismining pastki belgisi mustahkamlash tojidan kamida 1000 mm yuqori bo‘lishi kerak.

Shamollatish yoki isitish kanalining stvol yoki shurf bilan bog‘lanishi silliq o‘tish bilan burchak ostida ishlab chiqilishi kerak. Havoni ichkariga yo‘naltirish kanali bilan isitish kanallari birlashtirilishi lozim.

34. Stvol va shurf mustahkamlagichlari og‘zida yer yuzasidan kamida 1000 mm chuqurlikda kabelni kiritish uchun maxsus teshiklar qoldirilishi kerak. Teshiklarning o‘lchamlari stvollarga kiradigan kabellarning maksimal soniga qarab, ularni o‘rnatish va tekshirish uchun kirish imkoniyatini hisobga olgan holda qoldirilishi kerak.

Stvol va kabel o‘tkazish kanalining (xandaq) tutashgan joyida shaxta usti binosida bo‘sh joy bo‘lmasa, kirish lyuki mavjud bo‘lgan kabel qudug‘i burg‘ulanishi kerak.

Kabel kanali pastki qismi stvol og‘zi mustahkamlagichining ichki yuzasi bilan egri chiziq bo‘ylab ulanishi kerak. Uning radiusi yotqizilayotgan eng katta kabellarning diametridan (kamida) 25 baravar katta bo‘lishi kerak.

Kanallarning stvollar og‘zi bilan tutashgan joylarda xavfsizlik to‘siqlari o‘rnatilishi kerak.

35. Og‘izlarning yuqori joylarida stvol va shurflarning zinalari ustida metall qopqoqlar, shamollatish bo‘linmalari ustida esa olovbardoshlikka chidamli bo‘lgan materiallardan yasalgan metall panjara yoki germetik to‘siqlar o‘rnatilishi lozim.

36. Stvol hamda stvollardagi quvur va kabel bo‘linmalarining o‘lchamlari ularga joylashtirilgan quvurlar va kabellar soniga, shuningdek o‘rnatilishi kerak bo‘lgan bo‘shliqlarga qarab quyidagicha bo‘lishi kerak:

quvurlar orasida — yotqizilayotgan quvur gardishining maksimal diametridan kam bo‘lмаган holda;

quvur va boshqaruв kabellari yoki aloqa kabeli o‘rtasida — kamida 100 mm;

quvvat kabellari orasida — 50 mm (lekin kabelning diametridan kam emas);

stvolda ikki guruh o‘zaro zaxiralash kabel liniyalarini yotqizishda — kamida 1000 mm.

Stvoldan gorizontgacha bo‘lgan kabellarni chiqarish uchun asosiy suv haydash kameralariga suv o‘tkazgich yo‘llidan foydalanish kerak. Agar bunday yo‘llar mavjud bo‘lмагана, kabel yo‘llari bo‘lishi kerak. Ba’zi hollarda, gorizontni tutash qismidan kabellarni chiqarishni amalga oshirish mumkin.

37. Zumpflarning chuqurligini aniqlashda suv sathi va zumpfga joylashtirilgan uskunalar o‘rtasida minimal 1000 mm bo‘shliqi hisobga olish kerak.

38. Stvollarda suv tomchilarining oldini olish uchun suvni ushlab qolish hamda suvni shaxta umumiy suv yig‘gichga yo‘naltirish chorasini ko‘rish kerak.

### **3-§. Ma’dan tushirgichlar (tog‘ jinslarini tushirgichlar) va ko‘tarmalar**

39. Ma’dan tushirgichlar (tog‘ jinslarini tushirgichlar) va ko‘tarmalar (gezenk, skat)ning qiyalik burchaklari kamida quyidagicha qabul qilinishi kerak:

ko‘mir uchun — 50°;

tog‘ jinslari uchun — 60°;

cho‘kmagan rudalar uchun — 60° — 70°.

Ko‘mir oqimini osonlashtiruvchi qurilma va moslamalardan foydalanilganda esa burchaklarni 25°ga kamaytirish kerak.

Cho‘kmagan rudalarni (tog‘ jinslarini) ma’dan tushirgichlar (tog‘ jinslari) uchun vertikal olish kerak.

40. Korxonalarining asosiy ruda yo‘laklari va tog‘ o‘tish joylarini o‘tish bo‘linmalarisiz loyihalashtirish mumkin.

Uchastka ko‘tarmalar (tog‘ jinslari tushirgichlari, ko‘mir uchun gezenklar, skatlar) va ikki parallel lahimlar (yuk va yurish) har 10 — 15 m dan bir-biriga ulanadi yoki mustahkam devor bilan ajratilgan ikki bo‘lmaning bir qismi sifatida qo‘llaniladi, shuningdek ular uchta bo‘lma (yuk, shamollatish (material) va narvon) uchun ham mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. Yuk va narvon bo‘linmalarini ajratib turadigan devor bir-biridan 5000 mm masofada 200x200 mm o‘lchamdagи qulflanadigan oynalar bilan ta’minlanishi kerak.

Uchastka ko‘tarmalar (tog‘ jinslari tushirgichlari, ko‘mir uchun gezenklar, skatlar) ikki parallel lahimlar (yuk va yurish) sifatida loyihalanishi va har 10 — 15 m dan bir-biriga ularishi yoki mustahkam devor bilan ajratilgan ikki bo‘lmanning bir qismi sifatida nazarda tutilishi kerak, shuningdek ular uchta bo‘lma (yuk, shamollatish (material) va narvon) uchun ham mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Yuk va narvon bo‘linmalarini ajratib turadigan devor bir-biridan 5000 mm masofada 200x200 mm o‘lchamdagি qulflanadigan oynalar bilan ta’minlanishi kerak.

41. Ko‘tarmalar (skatlar) yuk bo‘linmalarining ma’dan tushirgichi (tog‘ jinslari tushirgichlari)ning eng kam ko‘ndalang kesim yuzasi o‘lchamlari tashiladigan materialning eng katta bo‘laklarining uch baravariga teng bo‘lishi (biroq 1000x1500 mm dan kam bo‘lmasligi) lozim.

42. Tog‘ jinsi massasining o‘tishi uchun mo‘ljallangan ko‘tarmalar va ma’dan tushirgichlarini loyihalashda, tashiladigan materialning konditsion bo‘laklarining o‘tishi uchun ularning og‘izlarini 400x400 mm dan ortiq bo‘lmanan katakli panjara bilan qoplanishi kerak.

Ko‘tarmalarning og‘izlari katagi 400x400 mm dan katta bo‘lgan panjaralar bilan to‘silishi va odamlar o‘tish tomonida esa to‘siqlar o‘matilishi kerak.

43. Kapital va uchastka ma’dan tushirgichlarning (tog‘ jinslari tushirgichlari), skatlarning va gezenklarning yuklash punktlari mexanizatsiyalashgan, avtomatlashtirilgan va changni bostirish hamda lokalizatsiya qilish vositalari, shuningdek to‘satdan suv bosishidan himoya qilish vositalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

#### **4-§. Vertikal stvollarning (shurf) gorizontal lahimlar bilan birikish o‘rni**

44. Yuk tashish uchun mo‘ljallangan stvol va stvololdi hovlisi birikish o‘rni balandligi stvoldan eng katta asbob-uskunalar va uzun materiallarni paketlar va konteynerlar orqali to‘siqsiz olib chiqish shartlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Birikish o‘rni balandligi temir yo‘l boshlaridan kamida 4500 mm bo‘lishi kerak.

45. Stvololdi hovlining klet stvoli bilan oraliq yo‘lining kengligi kletlarning o‘qlari orasidagi masofaga teng bo‘ladi, har ikki tomonidagi o‘tish joylari esa 1000 mm ga teng bo‘lishi kerak.

Kengaytirilgan oraliq yo‘ldan odatiy yo‘lga o‘tish vagonetkalarni almashtirish uchun uskunalar joylashgan joyidan tashqarida amalga oshirilishi kerak.

Klet stvolining stvololdi hovli bilan birikish o‘rnida yig‘ma temir-beton yoki betondan yasalgan temir yo‘lning bosh qismlari pol sathi bilan bir tekis bo‘lishi lozim.

#### **5-§. Gorizontal va qiya lahimlar**

46. Gorizontal va qiya lahimlarning joylashishini tanlash umumiy tartib yechimlarini hisobga olgan holda amalgga oshirilishi kerak. Bunda:

asosiy ochuvchi lahimlarni barqaror jinslarda, ularning yo‘qligida esa jinslarning qatlamlili yoki yoriq tog‘ jinslari bo‘ylab, shuningdek lahimlarning o‘zaro zararli ta’sirini istisno qiladigan masofalarda o‘tish;

svul bosim qatlamlari mavjudligini hisobga olgan holda yirik tektonik buzilishlar bo‘lgan joylarda lahimlarning joylashishidan saqlanish;

qazib olish lahimlari tugatilgach, xavfsizlik ustunlaridan foydali qazilmalarni qazib olish imkoniyatini ta’minalash;

stvololdi hovlilar va birikish o‘rlari lahimlarining ko‘ndalang kesim yuzasi minimal o‘lchamlarini ta’minalash kerak.

47. Lahimning ko‘ndalang kesim yuzasi tog‘ jinslarining barqarorligiga, foydalanish muddati va ishning maqsadiga qarab tanlanishi kerak. Barqaror jinslarda vertikal devorlari bo‘lган gumbaz shaklini ko‘llash kerak (beqaror jinslarda esa doirasimon yoki eliptik shakl qo‘llaniladi).

48. Stvololdi hovlisida asosiy magistral lahimlarning himoyasi tozalash lahimlarining zararli oqibatlarini istisno qiluvchi xavfsizlik ustunlari yordamida amalgga oshirilishi lozim.

Tozalash ishlariiga ta’sir etuvchi lahimlarda mustahkamlagichlarni himoya qilishning konstruktiv choralarini ko‘rsatilishi kerak.

Gorizontal va qiya lahimlarning o‘zaro zararli ta’siri hisobga olinishi, shuningdek ular bir-biridan va stvoldan mazkur ShNQ ning [6-ilovasiga](#) muvofiq aniqlanadigan masofada joylashgan bo‘lishi kerak.

49. Quvurlar va elektr kabellarining kirish va chiqish teshiklari, shuningdek shamollatish yoki isitish kanallarining joylashishi shtolnya va qiya stvol og‘zi mustahkamlagichida ta’minlanishi kerak.

Frontal qiyaliklarni mustahkamlashda yer usti suvlarini haydash va shtolnya hamda qiya stvol og‘zida beton, butobeton, yig‘ma yoki monolit temir-betondan bo‘lgan portallar qurilishi loyihalanishi kerak.

50. Stvollarining stvololdi hovlisining yuk tashish va qaytish yo‘llari kamida lokomotiv tarkibi uzunligi bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli qilib loyihalanishi kerak.

51. Klet stvollarining yuk tashish va qaytish yo‘llari o‘rtasida piyodalar aloqasi uchun zinapoyadan yoki kutish kamerasidan ular uchun o‘tish joyi ta’minlanishi kerak.

52. Lahim birikmalarini loyihalashda lahim birikish o‘rni kesim yuzasi va ularning o‘zaro ta’sirini, harakatlanuvchi tarkib o‘lchamlarini, bo‘shliqlar va kengayishlarni kuzatish bilan birga, ishlov beriladigan buyumlarning kesimlari va ularning o‘zaro ta’sirini, harakatlanuvchi tarkibning o‘lchamlarini, burilish kalitlari turi va yo‘laklar burilish burchaklarini hisobga olgan holda amalga oshirish kerak.

53. Gorizontal lahimplar birikmalari o‘rni bir-biri bilan egri hududlar radiuslari, shuningdek gorizontal va qiya lahimplarni o‘tishda foydalananligi transport va tog‘-kon o‘tish uskunalarini hisobga olinishi kerak.

54. Lokomotiv harakati vaqtida gorizontal lahim egri chiziqlarida kengayish qiymati egri chiziqning tashqi tomonidan kamida 300 mm, egri ichki tomonidan kamida 100 mm olinishi kerak. Shu bilan birga temir yo‘l izlari o‘qlari orasidagi masofa kamida 300 mm ga oshirilishi kerak (bunda to‘g‘ri hududlar orasidagi masofaga nisbatan amalga oshiriladi).

55.  $30^{\circ}$  dan ortiq qiyalik burchaklaridagi lahimplarda mustahkamlagich elementlarining lahim o‘qi yo‘nalishi bo‘yicha o‘zaro bog‘lanishini ta’minlashni, shuningdek mustahkamlagichni tog‘ jinslari bilan bog‘lanishini tamponlashni ankerlar, yer osti poydevori qurilmasi yoki mustahkamlash yoylari yordamida mustahkamlash zarur.

56. Beqaror va suvga to‘yingan tog‘ jinslari yotadigan zonada va qiya stvol bilan kesishmada stvol hududi suv bosishi va qumloqlarning oldini olish uchun kontaktidan vertikal ravishda 80 m masofada yaxlit mustahkamlagich bilan mustahkamlanishi lozim.

57. Doimiy muzlik sharoitida qiya stvollar oqadigan suvlardan, botqoqli past tekisliklardan, quritilgan va mavjud ko‘llardan hamda keng taliklardan xavfsiz masofada joylashgan bo‘lishi kerak.

58. Gorizontal va qiya lahimplar odamlarni mexanizatsiyalashgan texnikada yetkazib berishni hisobga olgan holda va odamlarni yetkazish-tashish vositalari yo‘nalishlari bo‘yicha odamlarni tushirish maydonchalarini loyihalash kerak.

59. Odamlarning lahimplarda harakatlanishi uchun zinapoyalar (piyodalar yo‘llari) suv haydash ariqlari ustida joylashgan erkin o‘tish joyida ta’minlanishi kerak. Suv haydash ariqlari joylashishini aniqlashda ularni mexanizatsiyalashgan usulda tozalash imkoniyati hisobga olinishi kerak.

## 6-§. Suv haydash qurilmalari kamerasi

60. Asosiy suv haydash tizimi kamerasining joylashuvi blokda markaziy yer osti elektr podstansiyasining kamerasi bilan birga ta’minlanishi kerak.

Nasos kameralarining pollari nasos yo‘llari sathidan kamida 500 mm balandlikda bo‘lishi kerak.

Suv haydash qurilmalarining kameralarida markaziy yer osti elektr podstansiyasining kamerasi bilan blokda yordamchi transport vositalari o‘rnatalishi, shuningdek uskunalarini yetkazib berish va o‘rnatish uchun ko‘tarish moslamalari bilan ta’minlanishi kerak.

Temir yo‘l transportida relslarning bosh qismi kameraning tagligi bilan bir tekisda joylashgan bo‘lishi kerak.

61. Suv haydash qurilmalari kamerasining o‘lchamlari nasos agregatlari soni va kameraning bo‘ylama o‘qi bo‘ylab bir qatorda joylashishi shartlaridan kelib chiqib, ular orasidagi masofa 1000 mm bo‘lishi lozim.

Kameralarining o'lchamlarini aniqlashda zarur avtomatlashtirish vositalari va ko'tarish mexanizmlarini joylashtirish ham hisobga olinishi kerak.

Suv haydash qurilmalari kamerasida nasos blokining chiqib turuvchi qismlaridan kameraning eng yaqin devorigacha bo'lgan masofa hisoblanganda quyidagilar ta'minlanishi kerak:

kamera bo'yisi bo'ylab suv-quvur yurish tomonidan uning kengligidan kam bo'limgan va qarama-qarshi tomonida uskunalar tashish uchun platforma uzunligidan kam bo'limgan 400 mm bo'shliq, bir qiya suv-quvur yurish va aylanma platforma bo'lmasa, kameraning ikkala tomonida 1000 mm bo'shliq;

kameraning kengligi bo'yicha uskunaning o'lchamlari yoki tashish platformasining kengligi bilan belgilangan umumi masofadan kam bo'limgan hamda temir yo'lidan nasos agregatlari va kamera devorining chiqadigan qismlariga qadar 200 mm bo'shliqlar kamida 500 mm dan kam bo'limgan masofada bo'lishi.

62. Suv haydash qurilmalarining kamerasi (asosiy va belgilangan maydon) balandligi quyidagilarni hisobga olgan holda aniqlanishi kerak:

kamera yer sathidan nasos qurilma asoslari 100 mm dan kam bo'lmasligi;

rels platforma yuqorisida ko'tarish vositalari tomonidan uskunalarni ko'tarish, va relslar bo'limgan holda kameralar kamida 150 mm balandlikda yer sathidan yuqorida bo'lishi;

ko'tarish vositalari va havoni ichkariga yo'naltirish trubalari orasidagi bo'shliq kamida 100 mm, truba yuqorida joylashishi balandligi kamida 1800 mm bo'lishi;

elektr jihozlarini chuqr bo'limgan kameralarga o'rnatishda, elektr jihozlarining tok o'tkazish qismlariga suv kirishi mumkin bo'lgan joylar stvololdi hovlisidagi temir yo'l bos qismidan kamida 1000 mm balandlikda bo'lishi.

63. Chuqr va chuqr bo'limgan suv haydash qurilmalari asosiy kamerasi elektr podstansiyasining blokshanishidan qat'i nazar, kameraning qarama-qarshi uchlarida joylashgan ikkita chiqish (o'tish joylari) bilan loyihalashtirilishi kerak. Shu bilan birga, kameralarda bitta shaxta (rudnik)da qabul qilingan transport vositalari tomonidan uskunalarni yetkazib berishga mo'ljallangan o'tish joylaridan kameralarni assosiy nasos chiqishi bilan bog'lash kerak.

64. Uskunalarni kameralarga yetkazib beriladigan yo'laklarining ko'ndalang o'lchamlari:

kengligi yetkazib beriladigan uskunalarning maksimal o'lchamlarini va lahimning har ikki tomonida kamida 200 mm bo'shliqlarni hisobga olgan holda;

balandlikda uskunaning maksimal balandligi va yo'lakning shiftiga 200 mm bo'shliqqa asoslangan, ammo qiya hudud uchun kamida 1500 mm va gorizontal yurish uchun 1900 mm ni hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim.

65. Asosiy suv haydash qurilmalari chuqr bo'limgan kamera qiya stvol bilan bog'lovchi gorizontga nisbatan  $20^\circ$  gacha qiyalik burchagida joylashishi kerak (bunda yurgichning stvol bilan tutashuvida nasos kamerasining yer sathidan vertikal masofa kamida 3500 mm bo'lishi lozim).

Suv haydash qurilmalarining chuqr kameralarda suv-quvur o'tish joylarining qiyalik burchaklari kon-geologik sharoitga qarab belgilanishi kerak.

Qiya yo'laklarda tutqichli zinapoyalar yoki to'siglar (zinapoyalar) ta'minlanishi kerak.

66. Suv haydash qurilmalarining chuqr bo'limgan qurilmalarida nasos agregatlari soni uchtadan oshmagan holda, kameralar ichida joylashgan bitta suv yig'ish qudug'i bilan ta'minlanishi kerak.

Suv olish qudug'ining shakli o'lchamlari nasoslar kavitsiya va shamollatishni istisno qiladigan rejimda ishlaganda, shuningdek chiqish quvur klapanlari va suv yig'ish qudug'i devorlari orasidagi kamida 200 mm bo'shliqlarni hisobga olgan holda suvni to'liq olib tashlashni ta'minlashi kerak. So'rish klapanlarini esa so'rish quvurlarining uchli diametriga teng masofaga joylashtirish kerak. Shu bilan birga, suv yig'ish qudug'ining chuqurligi kamida 1800 mm bo'lishi lozim (suv yig'uvchi taglikdan).

Quduqlarning og'izlari metall panjara yoki qovurg'ali metall listlar bilan qoplanishi kerak.

## **7-§. Suv yig'gichlar va tiniqlashtiruvchi idishlar**

67. Suv yig'gichlarning kesim yuzasi kamida  $4,5 \text{ m}^2$ , ish balandligi esa kamida 1900 mm bo'lgan holda olinishi kerak.

Chuqur turdag'i nasos kameralarining suv yig'gichlarida tashish lahimlariga chiqish uchun ikkita chiqish joyi bo'lishi kerak. Chiqish joylaridan biri to'g'ridan to'g'ri suv qabul qilish klapanlari ustida joylashgan bo'lishi kerak (unga kirish zinapoyalar yoki skobalar orqali chiqish ta'minlanishi kerak).

68. Tiniqlashtirish idishlari mavjud bo'lган suv yig'gichlarining tarmoqlari nasos kamerasiga qarab 0,001 nishabga ega bo'lishi kerak va suv yig'gichlarni tozalashda esa qiya yo'laklar orqali xuddi shu yo'nalishda 0,001 nishabga ko'tarilish bilan tozalash lozim.

69. Shaxta suvida abraziv zarralar (jinslar, rudalar, ko'mir) mavjud bo'lganda, ularni mexanizatsiyalashgan tozalash moslamalari bilan tiniqlashtirish idishlari ta'minlanishi kerak.

Kerakli miqdordagi tiniqlashtiruvchi idishlar hisoblash yo'li bilan aniqlanishi kerak. Tiniqlashtiruvchi idishlarning umumiy soni hisoblanganidan bitta ko'p bo'lishi lozim.

### **8-§. Zumpf suv haydash qurilmalari kamerasi**

70. Agar kon maydonida ikkita stvol bo'lsa, bitta zumpf suv haydash kamerasi stvolda eng past chuqurlikda va boshqa stvoldan suvni maxsus lahim (burg'ulash quduq) orqali oqib kelishi ta'minlanishi kerak.

71. Zumpf suv haydash qurilmalari kameralarida nasos agregatlarining eng ko'p chiqadigan qismlaridan masofa uzunligi bo'y lab 1500 mm, kengligi bo'y lab o'tish tomonidan 800 mm va qarama-qarshi tomonidan esa 400 mm, shuningdek nasos agregatlari orasidagi masofa 1000 mm olinishi lozim.

72. Tekis shiftli yopiq zumpf qurilmasi kamerasining balandligi kamida 2200 mm, gumbazli qopqoq bilan esa gumbazdan ergacha kamida 1600 mm qilib olinishi kerak.

73. Kameradagi chiqarish quvuri o'tish tomonga qarama-qarshi tomonidan kamida 1500 mm balandlikda joylashishi kerak. Kameralarda suv chiqarish zumpfi o'rnatilishi quvvati 100 Kvt va undan ortiq bo'lган elektr o'tkazgichga ega nasos agregatlarini o'rnatishda ko'tarish uskunalaridan foydalanish kerak.

74. Zumpf suv chiqargichni avtomatlashtirish uchun uskunalar stvololdi hovlining gorizontiga yetkazilishi yoki uni kameralarga joylashtirish uchun maxsus joy ajratilishi kerak.

### **9-§. Elektr podstansiyalarini kameralari va tarqatish punktlari**

75. Yer osti elektr podstansiyalarining kameralari va yuqori kuchlanishli tarqatish punktlari quyidagicha joylashtirilishi kerak:

markaziy yer osti podstansiyalarini stvololdi hovlilarda, shaxta stvollari yaqinida ko'milmagan asosiy suv haydash qurilmalari kamerasiga to'g'ridan to'g'ri ulangan holda;

yuqori kuchlanishli tarqatish punktlari yuqori voltli elektr energiyasi iste'molchilarini joylashgan markazda (statsionar va ko'chma uchastka podstansiyalarini);

statsionar uchastka podstansiyalarini elektr energiyasining asosiy iste'molchilarini yonida;

o'zgartirgich podstansiyalarini stvololdi hovlilarida va shaxta uchastkalarida.

76. Yer osti elektr podstansiyalarini kameralarida avtomatlashtirish uskunalarini va ko'tarish uskunalarini o'rnatish uchun joylar ta'minlanishi kerak.

77. Markaziy yer osti elektr podstansiyasi asosiy suv haydash chuqur bo'lмаган kamerasiga bevosita tutashganda 200 mm qalinlikdagi yong'inga qarshi devor bilan ajratilishi kerak.

Ushbu kameralarning kirish qismida yong'inga qarshi eshiklar o'rnatilishi lozim. Eshiklar nasos kamerasiga qarab ochilishi kerak. Markaziy yer osti podstansiyalarini pollari va asosiy chuqur bo'lмаган suv chiqarish qurilmasi kamerasi bir xil balandlikda bo'lishi kerak.

78. Markaziy yer osti elektr podstansiyasi yoki yuqori kuchlanishli tarqatish punktlari kamerasi to'g'ridan to'g'ri ularni ajratib turadigan devordagi nasos ishlariga ulangan bo'lsa, montaj teshiklari ta'minlanishi kerak.

79. Tarqatish kameralari va transformator podstansiyalarining yer sathi temir yo'l bosh qismidan kamida 500 mm baland bo'lishi kerak.

80. Tuz konlarining elektr kameralarini loyihalashda quyidagilar:

kameralarni yangi havo oqimi bo'y lab yuklash va yuklash punktlari oldida joylashtirilishi; podstansiya poli qo'shni lahimlarning yer sathidan 500 mm balandda joylashishi;

markaziy yer osti podstansiyalarda beton pollarni o'rnatalishi zarur.

## **10-§. Skip ko'targichlarini ko'tarish uskunalarini va ko'tarish moslamalari kameralari**

81. Ko'tarish va tortish moslamalari kameralarida quyidagi ikkita chiqish (yurish) yo'llari bo'lishi kerak:

arqonlar uchun;

uskunalar va materiallarni yetkazib berish uchun.

Ushbu yo'llarning o'lchami ko'tarish va tortish moslamalarining eng katta qismini tashish shartlariga qarab aniqlanadi.

82. Kameralarning o'lchamlari uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun ko'tarish moslamalarini, qurilmani, shuningdek statsionar ish joylarini o'rnatalish imkoniyatini hisobga olishi kerak.

83. Diametri 2000 mm dan ortiq bo'lgan shkvivli kameralarda ta'mirlash uchun temir ustunlarni o'rnatalish ta'minlanishi kerak. Temir ustun balandligida kamida shkvivning tashqi diametrining yig'indisi, stroplar bilan mahkamlangan shaklda o'rnatalish moslamasining minimal uzunligi va pastki temir ustunlaridan 100 mm bo'shliq bo'lishi kerak.

84. Yuklash moslamasi kamerasingning o'lchamlari uskunalarni o'rnatalish va ta'mirlash uchun ko'tarish va tashish moslamalarini, aspiratsiya-chang bostirgich moslamalarini va mexanikani avtomatlashtirish uskunalarini joylashtirishni hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

85. Yuklash moslamasi kamerasi stvoldan olinadigan to'siqlar tarmoqlari yoki o'rnatalish teshiklari bo'lgan temir-beton devor bilan ajratilishi kerak.

86. Yuklash moslamasi kamerasingi maydonlar orasidagi aloqa uchun zinapoyalar yoki skobalar qo'llanilishi kerak.

Agar yuklash moslamasi kamerasi stvololdi hovli bilan bog'lash uchun taqdim etilsa, u holda uning stvololdi hovli bilan birikish o'rni maxsus joyda joylashgan bo'lishi kerak (bu kamerani stvololdi hovlisidan eshiklar yordamida ajratishga imkon beradi).

87. Foydali qazilma va tog' jinslar uchun bunkerlar vertikal va dumaloq yuzaga ega bo'lishi, ko'mirni yig'ishda rudalar va tog' jinslari va uning yonidagi qiya bunkerda esa yurgich ta'minlanishi kerak.

Bunkerlarning qiya qismi ko'mir uchun — 50°, tog' jinslari va ko'rinnmaydigan rudalar uchun — 60° hamda ko'rinnadigan rudalar uchun — 70° burchak ostida bo'lishi kerak.

Bunkering beton tayanchini buzilishdan himoya qilish va harakatlanuvchi materialning ishqalanish koeffitsiyentini kamaytirish uchun ko'mir bunkerlarning pastki qismini, shuningdek ruda bunkerlarida pastki qismi va devorlarni buzilishi qiyin bo'lgan materiallar bilan ta'minlash kerak.

## **11-§. To'kgich va itargich kameralari, maydalash va boshqa tushirish qurilmalari**

88. To'kgich va itargich kameralari lahimning to'g'ri qismida joylashtirilishi kerak.

89. To'kgich va itargich kamerasingning o'lchamlari aspiratsion-chang bostirgich qurilmalarning joylashishini hisobga olgan holda uskunalar va ko'tarish moslamalarining o'lchamlari asosida aniqlanishi kerak. Aylanma yo'lli kameralarda to'kgichning eng ko'p chiqqan qismi va harakatlanuvchi tarkib orasidagi bo'shliq kamida 200 mm olinishi kerak.

90. Rudalarni aylanib o'tadigan to'kgich kameralarida barmoq, sektor eshigi yoki oziqlantiruvchi xonasi devor bilan ajratilishi kerak. Unda po'lat eshik va ushbu uskunaning qismlari va tarkibiy qismlarini yetkazib berish uchun montaj teshigi, harakatlanadigan qalqonlar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Ruda tushirgichi foydali qazilma bilan to'ldirishni boshqarish uchun tushirgich ostiga datchik o'rnatalishi kerak.

91. Kamera yerto'lasida joylashgan uskunalarni tekshirishda odamlar tushishi uchun shiftlar va narvonlarda lyuklar bilan ta'minlash kerak. Yerto'laning pasti qismi kamida 0,002° nishablikka maxsus ta'minlangan chuqur yoki bunker yo'naliishiga ega bo'lishi kerak.

92. Maydalash qurilmasi kameralari quyidagi ikkita chiqish (yo'lak) ga ega bo'lishi kerak:

gorizontal va qiya yoki vertikal holatda asbob-uskunalar, materiallar yetkazib berish, odamlarning o'tishi va kommunikatsiyalarni yotqizish uchun mo'ljallangan chiqish;

qiya va vertikal yo‘laklarda zinapoyalarni to‘siqlar bilan ta’minlash uchun chiqish.

93. Maydalash qurilmasi kameralarining o‘lchamlari ko‘tarish vositalarini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak. Kameraning oxirida kran uskunalarini tekshirish va ta’mirlash uchun ta’mirlash joyi bo‘lishi kerak.

94. Plastinka ta’minlovchi kamerasining o‘lchamlari quyidagilar hisobga olingan holda aniqlanishi kerak:

ta’milagich tomonida o‘tkazgich va mustahkamlagich orasidagi farq 1200 mm kam bo‘lmasligi;

uzunligi 2000 mm bo‘lgan lahimlarning berk qismining zaxira joyi;

tortish va haydash tishli ta’milagich kamerasi balandligi kamida 4000 mm bo‘lishi;

ko‘tarish uskunalarining elektr motorlari uchun bo‘shliqlarni (nisha) o‘rnatish.

95. Plastinka ta’milagichlari ostida yuzaga kelgan mayda narsalarni yig‘ish va olib tashlash uchun maxsus qurilmalardan foydalanilishi kerak.

96. Maydalash qurilma kameralaridagi barcha montaj teshiklari va tuynuklari harakatlanadigan qalqonlar bilan qoplanishi va to‘siqlari bo‘lishi kerak.

97. Maydalanmagan rudalar uchun qabul qiluvchi bunkerlarning o‘lchamlari: kengligi bo‘yicha bir vaqtning o‘zida tushiriladigan aravachalar soniga qarab, balandligi bo‘yicha esa bunker devorlarining egilish burchagi  $55^{\circ}$  dan kam bo‘lmagan holda qabul qilinishi kerak.

98. Avtomatlashtirish va telemexanika uskunalari uchun xona, shuningdek aspiratsiya va chang bostirgich moslamalari maydalash qurilmalari kameralari yonida yoki yaqinida joylashgan bo‘lishi kerak.

## **12-§. Elektrovoz ombori va vagonetkalarni ta’mirlash kameralari**

99. Elektrovozlar ombori stvololdi hovli yaqinida quyidagicha joylashgan bo‘lishi kerak:

akkumulyatorli elektrovozlar uchun — faqat alohida kameralarda;

kontaktli elektrovozlar uchun — alohida kameralarda yoki nasos ishlarining mahalliy kengayishi tufayli ishdan chiqadigan mustahkam yong‘inga qarshi devor to‘siqlari bilan to‘silgan joylarda.

100. Akkumulyatorli elektrovozlar ombori bir-biriga bog‘langan kameralarning bir qismi sifatida, shuningdek zaryadlash, o‘zgartirgichli podstansiya va statssionar ish joylarini jihozlash zarur bo‘lgan ta’mirlash ustaxonasi bilan ta’milanishi lozim.

Zaryadlash kamerasiga kirish maydonini kengaytirish uchun ta’mirlash ustaxonasini joylashtirish mumkin. Shu bilan birga, ta’mirlash ustaxonasiga qo‘srimcha kirish yo‘li talab qilinmaydi. Kamera kirish joyidan kamida 200 mm qalinlikdagi beton devor bilan o‘ralgan bo‘lishi kerak.

101. Kontaktli elektrovozlar ombori ta’mirlash ustaxonasi kamerasining bir qismi hamda unga zaxira elektrovozlari uchun ishlatiladigan kirish joyi sifatida ta’milanishi kerak.

102. Zaryadlash xonalarining uzunligi zaryadlash stollari bitta bo‘ylama qatorda joylashganligini hisobga olgan holda tanlanishi, shu bilan birga zaryadlash stollarida joylashgan batareyalar orasidagi masofa 1000 mm va chekka zaryadlash stollari va kameraning devori orasidagi erkin o‘tish 2500 mm deb belgilanishi lozim.

103. Zaryadlash xonalarining kengligi odamlar uchun o‘tish joyining kengligini taxminan 700 mm bo‘lgan va minimal bo‘shliqlarni hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanishi kerak;

zaryadlash stolidagi batareya va o‘rnatish moslamasi o‘rtasida 600 mm;

zaryadlash stolidagi batareya va elektrovoz o‘rtasida 260 mm.

Zaryadlash xonalarining balandligini batareyalarni zaryadlash stoli ustidagi kran tomonidan kamida 150 mm balandlikka ko‘tarilishini hisobga olish kerak va o‘zgartirgich podstansiyasi kamerasining umumiy balandligi kamida 2200 mm bo‘lishi lozim.

104. Batareya va kontaktli elektrovozlar uchun ta’mirlash ustaxonasi xonalarining balandligi kamida 3000 mm balandlikda temir ustunlarni joylashtirishini va kengligi ikkala tomonning 700 mm o‘tish joylarini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Ta’mirlash ustaxonalarining xonalarida tekshirish chuqurlarining kengligi 1000 mm dan oshmasligi, chuqurligi 1650 mm va uzunligi bitta ta’mirlash maydonchasida loyiha tomonidan qabul

qilingan elektrovozning uzunligiga va ikkita ta'mirlash maydonchasida ikkita elektrovozning umumiy uzunligiga teng bo'lishi kerak.

Ta'mirlash ustaxonalarining butun kengligi bo'ylab tekshirish chuqurining bir uchini 500 mm chuqurlikdagi chuqurcha bilan ta'minlash kerak, shuningdek unga tomon chuqurcha qavati  $0,01^\circ$  gacha nishablikka ega bo'lishi lozim. Odamlar chuqurga tushishi uchun devorga o'rnatilgan beton, po'lat narvon yoki skobalar bilan ta'minlanishi kerak.

105. Akkumulyatorli elektrovoz omborlarini loyihalashda kameraga bitta o'tishni uchtagacha elektrovozning inventarizatsiya raqami bilan, 10 tagacha elektrovozning inventarizatsiya raqami bilan ikki marta o'tishni va 10 dan ortiq elektrovozning inventarizatsiya raqami bilan uch marta o'tishini ta'minlash kerak.

Kontaktli elektrovozlarning ombor kameralari uchun bitta kirish o'rni, bitta ta'mirlash joyi va agar ikki yoki undan ortiq ta'mirlash joylari bo'lsa ikkita kirish o'rni bilan ta'minlanishi kerak

Kerakli ta'mirlash joylari soni hisob-kitob yo'li bilan aniqlanishi kerak.

106. Zaryadlash kameralariga, shuningdek elektrovozlar omboriga kirish o'rni tashqi tomondan ochiladigan yong'inga qarshi eshiklar bilan ta'minlanishi kerak.

Elektrovozlar omborxonalari beton polar bilan ta'minlanishi va relslar pol bilan bir tekis yotqizilishi kerak.

107. Vagonetkalarni muntazam ta'mirlash, tozalash va moylash kameralari kletlarning o'lchamlari foydali qazilma va tog' jinslarini yer yuzasiga chiqarish uchun ishlatiladigan vagonetkalarni yetkazib berishga imkon bermaydigan hollarda ta'minlanishi kerak.

Boshqa barcha holatlarda kamera faqat vagonetkalarni moylash uchun qo'llaniladi.

Kameralarning kirish eshiklari olovbardoshli mahkamlagichlar bilan himoyalangan yong'inga qarshi eshiklar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

108. Vagonetkalarni muntazam ta'mirlash, tozalash va moylash uchun kameralarning uzunligi minimal bo'shlialarni hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanishi kerak:

1500 mm — vagonetkalar va uskunalar o'rtasida;

1200 mm — vagonetka va eshik o'rtasida;

700 mm — ikkita vagonetka o'rtasida.

Dastgohlar uchun mo'ljallangan bo'linmaning uzunligi kamida 3000 mm bo'lishi kerak.

Vagonetkalarni muntazam ta'mirlash, tozalash va moylash uchun kameralarning kengligi kamerada o'rnatilgan relslar soniga va vagonlar orasi har tomondan 500 mm dan mustahkamlagich orasidagi bo'shlialarga qarab aniqlanishi kerak.

### **13-§. Dizelli o'ziyurar transport kamerasi**

109. Garaj parkning umumiy ro'yxatda bo'lgan barcha park tarkibining to'xtash joyi hisoblanadi (ta'mirlanayotgan mashinalar bundan mustasno).

110. Uskunalarini asosiy qismlarga ajratmasdan yer ustiga yetkazib berish imkoniyati bo'limgan taqdirda ta'mirlash ustaxonasi ta'minlanishi kerak. Agar garaj va ta'mirlash ustaxonasi yong'inga qarshi eshiklar va mustaqil chiqish yo'llariga ega bo'lsa hamda yong'inga qarshi devor bilan ajratilgan bo'lsa, ularni bitta lahimda joylashtirish mumkin.

111. Garaj va ta'mirlash ustaxonasi kameralarining o'lchamlari quyidagilarni hisobga olgan holda aniqlanishi kerak:

xizmat ko'rsatiladigan texnikaning o'lchamlari va ular orasidagi odamlar uchun zarur bo'lgan o'tish joylarini;

eng katta burilish radiusiga ega bo'lgan texnikaning kirish va chiqishidagi manevrlar imkoniyatini;

statsionar ish joylari qurilmasini.

Kameralarning balandligi joylashtirilgan ko'tarish uskunasining balandligini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

112. Yoqilg'i-moylash materiallarining (YoMM) yer osti omborlari qo'shni lahimplarga chiqadigan kamida ikkita alohida yo'l kameralarga joylashtirilishi kerak. Chiqish yo'li kameraning bir-biridan eng uzoq qismlari masofasida joylashgan bo'lishi kerak. Har bir chiqish yo'li tambur shlyuz va ikki tomonlama metall qoplamlari eshik bilan ta'minlanishi zarur.

113. Yoqilg‘i-moylash materiallari omborlarida kameraning poli qo‘sni lahim balandligidan past bo‘lishi yoki kameradan chiqishdan oldin beton val o‘rnatalishi kerak. Agar chuqur yoki val saqlanadigan idishlardan barcha suyuqlik oqib chiqsa, omborlardan tashqarida yoqilg‘i va moylash materiallaridan sizib chiqish imkoniyati bo‘lmasligi kerak. Valning qalinligi uning balandligiga teng bo‘lishi, lekin 500 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

114. Garaj, ta’mirlash ustaxonasi va yoqilg‘i omborida pollar betondan bo‘lishi ta’minlanishi kerak.

115. Yoqilg‘i-moylash materiallari (YoMM) ombori boshqa xizmat ko‘rsatish shaxobchalaridan 100 m dan yaqin bo‘limgan joyda joylashgan bo‘lishi, shaxobchalar orasidagi masofa esa kamida 30 m bo‘lishi kerak.

#### **14-§. Yong‘inga qarshi qorollar, asbob-uskunalar saqlash ombori hamda yong‘in o‘chirish poyezdi deposi**

116. Yong‘in o‘chirish poyezdining deposi har bir ishlaydigan gorizontda, stvololdi hovli hududida, alohida lahimda yoki tashish lahimlarining kengaygan joyida loyihalashtiriladi.

Yong‘in o‘chirish poyezdi deposining bir qismi sifatida yong‘inga qarshi materiallar, qurilmalar va asboblar ombori ta’minlanishi kerak.

Bundan tashqari omboorning bir qismi sifatida quyidagilarni ta’minlash kerak:

yong‘inga qarshi qurilmalar, materiallar va asboblarni saqlash uchun bo‘linmalar;

yong‘in o‘chirish poyezdining yong‘inga qarshi qurilmalari, materiallar va asboblar bilan bo‘linmalar bo‘ylab to‘xtash joylari;

panjarali kirish eshigi.

117. Yong‘in o‘chirish poyezdi, materiallar va uskunalar uchun bo‘linmalar orasidagi bo‘shliq elektrovoz transporti uchun kamida 700 mm va o‘ziyurar transport uchun kamida 1000 mm bo‘lishi kerak. Yong‘inga qarshi materiallar, qurilmalar va asboblarni saqlash uchun bo‘linmalarning kengligi kamida 900 mm bo‘lishi kerak.

118. Omboorning uzunligi uning shtrek bilan lahim birikmasining umumiy uzunligi, yong‘in o‘chirish poyezdining tarkibiy uzunligi va omboz uzunligi bo‘ylab 1000 mm bo‘shliq bilan ajratilishi kerak. Rels bosh qismidan boshlab o‘lchanganda omboorning balandligi kamida 1900 mm bo‘lishi kerak.

#### **15-§. Sovutilgan havo oqimi qurilmalari, suv o‘tkazmaydigan to‘sinq devorlar va kon uskunalari uchun saqlash xonalari kamerasi**

119. Shaxtaning sovutilgan havo oqimi qurilmasi kameralarning nisbiy joylashishi, blokhanishi, kameralarga xizmat ko‘rsatishning qulayligini ta’minlashi va ularni stvololdi hovlisining lahimlariga eng yaqin yo‘lda shaxta konditsioner sxemasi asosida bog‘lanishi kerak.

120. Yer osti sovutgich mashinalarining va yuqori bosimli issiqlik almashinuvchilarining kameralari mos ravishda loyihalashtiriladi.

Sovutgich mashinalarining kompressoriga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan asosiy o‘tish joyining kengligi kamida 1500 mm bo‘lishi kerak.

Kameralarning o‘lchamlari ko‘tarish-tashish uskunalari va ta’mirlash-chilangar uskunalari uchun joyni hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Kameralarda shaxta uchun temir yo‘l yotqizilishi kerak. Temir yo‘l bosh qismlari kamera polining ostida bo‘lishi kerak.

Kameralarda changlanmaydigan beton pollar va suv chiqarish ariqlarini shaxta suv ustuni tomon nishablik bilan oqishini ta’minlash kerak.

121. Yer osti sovutish mashinalarining kameralari alohida toza havo oqimi bilan shamollatilishi kerak.

122. Nasoslar ikki qator qilib joylashtirilishi kerak.

123. Agar quvurlardagi bosim 6,4 MPa ( $64 \text{ kg/sm}^2$ ) dan ortiq bo‘lsa, quvurlar stvoldan issiqlik almashinish kamerasiga maxsus yo‘llar bo‘ylab yotqizilishi kerak.

124. Kon uskunalari kon ustaxonasi uchun yer ostida joylashtirilishi kerak.

Kameralarning joylashishi, soni va ularning o'lchamlari kameralarning maqsadi va ularga joylashtirilgan uskunalar va materiallarning o'lchamlariga qarab belgilanadi.

125. Suv o'tkazmaydigan to'siq devorlar uchun kameralar yoriqlarsiz chidamli tog' jinslaridan qurilishi kerak. To'siq devor qurilgan joydan har bir yo'nalishda kamida 15 m o'zoqlikda tektonik buzilishlar, yoriqlar, darzliklar va karst bo'shliqlari bo'lmasligi kerak.

126. Suv o'tkazmaydigan to'siq devorlarni 0,2 MPa ( $2 \text{ kg/sm}^2$ ) dan ortiq bosimda loyihalashda ular tajribaviy sinovdan o'tkazilishi zarur.

## **16-§. Operator (dispatcher), odamlarni kutish, tibbiyot markazi va boshqa turdag'i kameralar**

127. Yer osti ishlarida operator (dispatcher) kamerasi boshqarish qulayligi bilan avtomatlashtirilgan qurilmalarni kuzatish, shuningdek uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash qulayligini hisobga olgan holda joylanishi lozim.

Apparat yechimiga qarab, operator xonasi quyidagi bir yoki bir nechta xonadan iborat bo'lishi kerak:

operator xonasi;  
apparat xonasi;  
ustaxona.

Kameraning balandligi kamida 2200 mm bo'lishi kerak.

128. Kutish kamerasi odamlarning tushish-ko'tarilishi uchun shaxta stvoli yonida joylashtirilishi kerak.

Stvololdi hovlining har bir yo'li bilan kutish kamerasining o'zaro aloqasi uchun kameraladan ikkita chiqish joyi ta'minlanishi kerak. Ularning ko'ndalang o'lchamlari kengligi kamida 1500 mm va balandligi kamida 2200 mm bo'lishi kerak.

129. Kutish kamerasi kengligi 450 mm bo'lgan o'rindiqlar bilan ta'minlanishi, ular ikki yoki to'rt qatorga joylashtirilishi hamda ularning orasidagi o'tish joylari 800 mm ga teng bo'lishi kerak.

Kutish kamerasining maydoni bir kishi uchun  $0,5 \text{ m}^2$  ga teng bo'lgan me'yoriy maydon asosida aniqlanishi kerak.

Kameraning pol va devorlari issiqlik saqllovchi materiallari bilan qoplanishi kerak.

130. Korxonalarda odamlar uchun kutish kamerasi yonida yer osti tibbiy markaz kamerasi joylashtirilishi kerak.

Kamera qabul qilish, ro'yxatga olish va kiyinish xonalaridan iborat bo'lib, eshik ochiladigan qism bilan ajratilgan va rejadagi o'lchamlari  $4000 \times 7000 \text{ mm}$  dan kam bo'lmasligi kerak.

Stvololdi hovlisida tibbiyot markazining kamerasi kengligi kamida 1500 mm va balandligi 2200 mm bo'lgan ikkita o'tish yo'li bilan ulanishi kerak. Unda shamollatish oynalari bilan tashqi tomondan ochiladigan eshiklar bo'lishi kerak.

Kutish kameralari va tibbiyot markazi beton pollar bilan ta'minlanishi kerak.

131. Lahimlarda assenizatsiya tadbirlarini o'tkazish uskunalarini joylashtirish uchun kameralar bilan ta'minlanishi kerak.

## **6-bob. Mustahkamlagichni hisoblash va tanlash**

### **1-§. Asosiy hisob qoidalari**

132. Hisoblangan analitik, eksperimental-analitik va boshqa modellar ularning ishslash xavfsizligini kafolatlaydigan, kon ishlari mustahkamlagichi va himoya qilish choralarining ishonchli parametrlarini ta'minlashi zarur.

Lahimning o'tilishi va ekspluatatsiyasining butun davrida lahim tog' jinslari bilan o'zaro ta'sirining butun jarayonini hisobga olish kerak. Bu holda, quyidagilarni nazarda tutish lozim:

yopiq massivning haqiqiy kuchlanish holatini;  
tog' jinslarining geologik tuzilishini, ularning tabiiy va yo'nalgan sinishini;  
ekspluatatsiya ish sharoitida atrofdagi jinslarning dastlabki va o'zgaruvchan xususiyatlarini.

133. Mustahkamlagich va tog' jinslarining o'zaro ta'sirini baholashda tog' jinslarini mustahkamlash yoki ularni tushirish choralarini, ish joylarini qurish va ishlatish paytida muhandislik-geologik, gidrogeologik va kon-texnik sharoitlarning o'zgarishini prognoz qilishni hisobga olish kerak.

134. Lahimlarni mustahkamlash parametrlarini aniqlash uchun asosiy hisoblash ma'lumotlari sifatida quyidagilarni hisobga olish kerak:

atrofdagi massivning kuchlanish taqsimotining haqiqiy qiymatlariga mos keladigan lahimlarni joylashtirishning taxminiy chuqurligini;

tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini hisoblangan qiymatlarini;

mustahkamlagich materiallari va mahkamlash joyini to'ldirish xususiyatlarini;

boshqa lahimlarning xususiyatlari va ta'sir darajasini;

boshqa qo'shimcha ta'sirlarni.

135. Jinslarning (massivning) siqilishga qarshiligi hisoblangan  $R_c$  quyidagi (1) formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R_c = R \cdot k_c \cdot k_d, (1)$$

Bu erda:

$R$  — namunadagi jinslarning bir o'qli siqilishga chidamliligining o'rtacha qiymati, tog' jinsi namunalarini sinash natijalari bo'yicha eksperimental ravishda o'mratilishi, MPa ( $\text{kg}/\text{sm}^2$ );

$k_c$  — quyidagi 2-jadval bo'yicha olingan kam ulanishga ega bo'lgan yuzalar (sirpanuvchi ko'zgular, yoriqlar, gilli nimqatlamlar) bo'yicha lahim perimetri bo'ylab o'rtacha hisoblangan tog' massivining buzilishini hisobga oluvchi koeffitsiyent;

$k_d$  — uzoq muddatli mustahkamlik koeffitsiyenti, sezilarli sudraluvchi tog' jinslar sinovlari natijalariga ko'ra qabul qilingan.

Agar lahim konturining turli nuqtalarida mahalliy quvvatni zaiflashtiruvchi koeffitsiyentlar qiymatlarida sezilarli farq bo'lsa, ularning haqiqiy qiymatlari olinishi kerak.

Zarurat bo'lganda (lahimni suvslash, jinslarning mustahkamlanishi),  $R_c$  ni aniqlash ushbu omillarning ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

136. Lahimlarni loyihalashda  $k_c$  qiymati quyidagi **2-jadvalga** muvofiq tog' jinslarining zaiflashishi yuzalari orasidagi o'rtacha masofa bo'yicha muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari asosida ishlarning loyihalashtirilgan joylashuvi o'rinalarda tog' massivining buzilishi miqdoriy tahliliga muvofiq aniqlanadi.

	2-jadval
<b>Tog' jinslarini kuchsizlantirish yuzalari orasidagi o'rtacha masofa, m</b>	<b>Koeffitsiyent qiymati <math>k_c</math></b>
1,5 yuqori	0,9
1,5 dan kam 1 gacha	0,8
1 dan kam 0,5 gacha	0,6
0,5 dan kam 0,1 gacha	0,4
0,1 dan kam	0,2

Burg'ulash paytida kern qo'shimcha buzilishi ehtimoli tufayli mustahkamligi  $R_{kc}$  koeffitsiyenti quyidagi **3-jadvalga** muvofiq lahim yoki uning uchastkasi joylashgan o'rni tog' massivining tektonik buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanishi kerak.

	3-jadval
<b>Lahimning joylashuv o'rni</b>	<b>Koeffitsiyent qiymati <math>k_c</math></b>
Radiusi 300 m dan kam bo'lgan plikativ buzilishlardan tashqarida va dizyunktiv buzilishlarning ta'sir zonasidan $4N$ dan ortiq masofada tashqarida ( $N$ -buzilishning normal amplitudasi, m)	0,9
Radiusi 300 m dan kam bo'lgan plikativ buzilishda yoki undan $4N$ dan $1N$ gacha bo'lgan masofada dizyunktiv buzilishning ta'sir zonasida	0,6
Dizyunktiv buzilishdan $1N$ dan kam masofada	0,3

137. Mustahkamlagich materiallarining hisob va normativ xususiyatlari ularning yer osti sharoitida va talablarga muvofiq quyidagi ishlashini hisobga olish kerak:

beton va temirbeton mustahkamlagichlar uchun — QMQ 2.03.01-96, GOST 26633-2012 va GOST 27751-2014 talablarini nazarda tutgan holda;

metal mustahkamlagichlar uchun — ShNQ 2.03.05-13 talablarini nazarda tutgan holda;

yog‘och mustahkamlagichlar uchun — QMQ 2.03.08-98 talablarini nazarda tutgan holda;

tosh asosli mustahkamlagichlar uchun — QMQ 2.03.07-98 talablarini nazarda tutgan holda.

138. Lahim mustahkamlagichi tuzilmalarini hisoblash yuk ko‘tarish qobiliyatiga muvofiq (mo‘rt, yopishqoq va boshqa turdagи shikastlanish omillari bo‘yicha) va zarur bo‘lsa, QMQ 2.01.07-96 talablariga muvofiq barqarorlik va yorilishga chidamliligi bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

Yupqa devorli po‘lat va yig‘ma konstruksiyalar barqarorlikka, gidro va gaz izolatsion mustahkamlagichlarni yorilishga chidamliliginini tekshirish kerak.

139. Lahim mustahkamlagichlari tog‘-kon o‘tish ishlari texnologiyasi va mustahkamlagichlarni o‘rnatishni hisobga olgan holda, kon o‘tish yoki ekspluatatsiya vaqtida bir vaqtning o‘zida harakat qiladigan kuchlanishlar va ularning ta’sir kuchlari ehtimoliy salbiy kombinatsiyalari asosida hisoblanishi kerak. Shu bilan birga, QMQ 2.01.07-96 ga muvofiq quyidagi kuchlanishning kombinatsiyalarini qabul qilish kerak:

asosiy kombinatsiya-doimiy kuchlanishlar va ta’sir kuchlar, vaqtincha uzoq muddatli kuchlanishlar, qurilish paytida yuzaga keladigan ta’sir kuchlarni;

maxsus kombinatsiya-doimiy, vaqtinchalik uzoq muddatli, ehtimol qisqa muddatli va maxsus seysmik yoki boshqa kuchlanishlar yoki ta’sir kuchlarni.

140. Kuchlanishlar va ta’sir kuchlarining kombinatsiyasi uchun lahimplarning mustahkamlagich tuzilmalarini loyihalashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

doimiy kuchlanish va ta’sir kuchlar:

a) kon massivi tomonidan tog‘-kon bosimi:

tog‘ jinslarining vazni mustahkamlagichga erkin ta’sir qilishini;

deformatsiyaning tog‘ massivi bilan o‘zaro ta’siri tufayli mustahkamlagichga ta’sir qiluvchi aloqa kuchlarini (kuchlanishlar);

b) mustahkamlagichning o‘z vazni;

v) mustahkamlagich elementlariga dastlabki kuchlanishlar ta’sirida kelib chiqadigan ta’sirlar;

g) yer osti suvlarining bosimi;

vaqtincha kuchlanish va ta’sir kuchlarni:

a) harorat ta’sirlari, shu jumladan sovuq ta’sirida tog‘ jinsining ko‘tarilishi;

b) tozalash lahimplari, boshqa lahimplar va suvning darajasini kamaytirishning ta’siri;

v) tog‘ jinslari shishishi natijasidagi bosim;

qisqa muddatli kuchlanish va ta’sir kuchlarini:

a) mustahkamlagich orqasida tamponlash qilingan eritmaning bosimi;

b) tog‘-kon o‘tish, transport mashinalari va komplekslarining yuklari ta’siri;

v) keng ko‘lamli portlatish ishlari ta’siri;

maxsus kuchlanish va ta’sir kuchlarini:

a) dinamik kuchlanishlar;

b) seysmik ta’sirlar.

Yuklarning kombinatsiyalarini hisobga olishda QMQ 2.01.07-96 da belgilangan kombinatsiyalar koeffitsiyentlaridan foydalanish kerak.

Yuklarga ishonchlik koeffitsiyenti  $\gamma_f$ , javobgarlik  $\gamma_n$  va kuchlanishlarning birikish  $\psi$  koeffitsiyentini QMQ 2.01.07-96 va mazkur ShNQ ga muvofiq qabul qilish lozim.

141. Kuchlanishlarning asosiy va maxsus kombinatsiyalari uchun yuk ko‘tarish qobiliyati va barqarorligini mustahkamlagichni hisoblashda GOST 27751-2014, GOST 26633-2012, QMQ 2.03.01-96 va mazkur ShNQ bo‘yicha konstruksiyalarning ish sharoitlarini hisobga olgan holda materiallarning hisoblangan qarshiligi bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

142. Mustahkamlagichni tanlash va hisoblash lahimdagi tog‘ jinslari barqarorligi (barqarorlik toifalari) holatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu holatlarning umumlashgan xususiyatlari quyidagi **4-jadvalda** berilgan.

4-jadval		
Barqarorlik toifasi	Barqarorlik holatini baholash	Barqarorlik holatining xususiyatlari
I	Barqaror	Tog‘ jinslarining sezilarli siljimagan va sinmagan yoki kichik mahalliy yoriqlar mavjud Lahimni o‘rab turgan jinslarda noelastik deformatsiyalar zonasining umumiy rivojlanishining dastlabki bosqichiga mos keladigan, massivga chuqur kirib boradigan tog‘ jinslarining oz miqdorda tarqalishi; tuzilmali zaiflashgan zonalarda tog‘ jinslarining yaxlitligini buzish mumkin. Tog‘ jinslarining deformatsiyalari amortizatsiya xususiyatiga ega
II	O‘rtacha barqaror	Lahim konturining erkin sezilarli siljishi bilan tog‘ jinslarining deformatsiyalari va buzilish zonalarini yanada rivojlanishi. Jinslarning deformatsiyalar vaqtida zaif so‘nishiga bosqichma-bosqich yondashuv
III	Beqaror	Noelastik deformatsiyalaruvchi jinslarning katta zonalari ularni yo‘q qilish bilan lahim atrofida rivojlanadi. Lahimning erkin (yoki qo‘llab-quvvatlashning kichik tiklanishi bilan) konturining siljishi zaif so‘nuvchi va so‘nmas xususiyatga ega
IV	O‘ta beqaror	Noelastik deformatsiyalaruvchi jinslarning katta zonalari ularni yo‘q qilish bilan lahim atrofida rivojlanadi. Lahimning erkin (yoki qo‘llab-quvvatlashning kichik tiklanishi bilan) konturining siljishi zaif so‘nuvchi va so‘nmas xususiyatga ega

## 2-§. Tog‘ jinslari va yuklarning mustahkamlagichga ta’sir etuvchi barqarorligini hisoblash, turini tanlash va mustahkamlagichni hisoblash

143. Vertikal stvollarni mustahkamlash turini tanlash va parametrlarini hisoblash muhandislik-geologik, gidrogeologik sharoitlarga, zararli ta’sirga qarab, shuningdek ishlab chiqarish usullarini hisobga olgan holda stvol og‘zi, kengaytirilgan qism, birikmalari uchastkalari uchun differensial ravishda amalga oshirilishi kerak.

144. Stvol va shurflarning og‘zini mustahkamlash monolit beton yoki temir-beton, metall yoki temir-beton tyubinglardan loyihalanishi kerak. Ta’sir etuvchi kuchlar, kanallar teshiklarining o‘lchamlari va vertikal lahim diametrlariga qarab stvol og‘zini mustahkamlash turi bir, ikki va uch bosqichli, toj yoki qadam toj bilan loyihalanadi.

145. Stvol va shurflarning og‘izlarini mustahkamlashni hisoblash vertikal va gorizontal bosim ta’sirida amalga oshirilishi kerak.

Vertikal kuchlanishlarni mustahkamlagichning o‘z og‘irligidan, mustahkamlagichga asoslangan uskunalar va inshootlarning massasidan bosim yig‘indisi sifatida gorizontal-massiv jinslarining bosimidan, sirt poydevorlari va tayanchlaridan kuchlanish va qatlamlardagi hidrostatik bosimdan aniqlash kerak.

146. Hisoblangan vertikal yuk  $P_{\text{b}}^{\text{p}}$  N (ts), stvol og‘zini mustahkamlagich quyidagi (2) formula bilan aniqlanadi:

$$P_{\text{b}}^{\text{p}} = \gamma_f \cdot \gamma_n \cdot \sum_{i=1}^{i>1} P_{\text{bi}} + Q_y \quad (2)$$

Bu erda:

$\gamma_f$  — 1,17 ga teng yuk ishonchliligi koeffitsiyenti;

$\gamma_n$  — javobgarlik koeffitsiyenti 1,2 ga teng;

$\sum_{i=1}^{i>1} P_{\text{bi}}$  — stvol yaqinidagi yuzada joylashgan kon inshootlarining mustahkamlagichlari orqali stvololdi og‘zi tayanchiga uzatiladigan vertikal yuklarning yig‘indisi, kN (ts);

$Q_y$  — mustahkamlagichning o‘z vazni, kN (ts).

$r_p$  — vertikal stvolning og‘zini mustahkamlagich tog‘ jinslarining gorizontal (radial) bosimi kesishgan tog‘ jinslari va tuproqlarning turi va xususiyatlariiga va ularning suvgaga to‘yinish darajasiga qarab hisoblash mazkur ShNQ ning [2-ilovasiga](#) muvofiq aniqlanadi.

147. Stvolning kengaytirilgan qismini, shuningdek birikmasi uchastkalari mustahkamlagich turini tanlash va parametrlarini hisoblash yer osti suvlarining bosimini tozalash va boshqa ishlarning ta’sirini hisobga oлган holda kesishgan jinslarning barqarorligi toifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Stvol mustahkamlagichi hisoblanganda stvol va kontakt tegma yuklarni aylana bo‘ylab notekis taqsimlangan radial yuk bo‘yicha quyidagi 1-rasmga muvofiq hisoblash kerak.


Vertikal lahimlarni mustahkamlagich bo‘yicha tog‘ jinslari barqarorligi va yuklarni hisoblash hamda Hisobiy chuqurlikni baholash mazkur ShNQ ning [3](#) va [4-ilovalarida](#) ko‘rsatilgan usullarga muvofiq bajarilishi kerak.

148. Matematik modellashtirish usullari ushbu metodlar doirasidan tashqarida qo‘llanilishi kerak.

149. Past harorat sharoitida stvollarni va boshqa lahimlarni mustahkamlashdagi yuklar haroratini va namlik rejimini va qazish mavjudligining barcha davrlarida tog‘ jinslarining erishi, ularni muzdan ozod etish vaqtida toshlar hajmini kamaytirishning ehtimoliy jarayonlarini hisobga oлган holda aniqlash kerak.

150. Muzdan ozod etish jarayoni, shuningdek tog‘ jinslarining zinch qatlamlari stvol mustahkamlagichiga osib qo‘yilganda mustahkamlashning vertikal joylashishini hisobga olish kerak.

151. Stvolning qattiq mustahkamlangan kengaytirilgan uchastkalarida, shuningdek I, II va III toifadagi barqaror tog‘ jinslaridagi stvol birikmalarining uchastkalari uchun tozalash ishlari, boshqa lahimlar, bosimli suv va suvning pasayishi ta’siri bo‘lmaganda, beton mustahkamlagichning qalinligi quyidagi [5-jadvalga](#) muvofiq barqarorlik toifasi bo‘yicha hisob-kitobsiz amalga oshiriladi.



1-rasm. Vertikal lahimning mustahkamlagichidagi gorizontal yuklarning asosiy diagrammasi

Bu erda:

$R_{\max}$  — maksimal yuklanish;

$R^{\min}$  — minimal yuklanish;

$\bar{P}$  — о‘rtacha yuklanish;

$R_0$  — yuklanishning bir tekis qismi;

$R_2$  — yuklanishning notekis qismi;

q — urinma kuchlanish.

Uchastkaning joylashish chuqurligi, m	Tog‘ jinslarining yuzaga kelish burchaklarida beton mustahkamlagichining qalinligi, mm	
	35° gacha	35° dan yuqori
500 gacha	200	250
500 dan yuqori	250	300

II va III toifadagi barqaror tog‘ jinslarida beton mustahkamlagichning qalinligi hisoblab chiqilishi kerak. Bunda qiymatlar yuqoridagi [5-jadvalda](#) ko‘rsatilgan qiymatlardan kam bo‘lmasligi kerak.

Bosimli suv mayjud bo‘lganda, tayanch turini tanlash va uni hisoblash suv o‘tkazmaydigan tayanchlar bilan to‘liq gidrostatik bosim va suv o‘tkazmaydigan tayanchlar bilan qoldiq bosimni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

152. Agar stvollarning beton, temir-beton mustahkamlagichning hisoblangan qalinligi 500 mm dan oshsa, unda shunga mos ravishda yuqori quvvat sinfining 500 mm qalinlikdagi beton mustahkamlagichidan foydalanish kerak.

153. Birlashtirilgan beton, temir-beton va boshqa qattiq mustahkamlagichlar ankerlar bilan loyihalanmaydi va ishlatilmaydi.

154. Tegishli asos bilan, stvol qattiq mustahkamlagichlar bilan I toifali tog‘ jinslarida o‘tilgan bo‘lsa, mustahkamlagichlar va ularning parametrlarini mazkur ShNQ ning [155-bandiga](#) asosan qo‘llash mumkin.

155. Egiluvchan mustahkamlagichlarga ega stvolda, shuningdek ko‘tarish moslamalari bilan jihozlanmagan, shamollatish stvollari va shurflarida, suv oqimlari  $8 \text{ m}^3/\text{soat}$  dan oshmaydigan tozalash va suvni kamaytirish ta’siri bo‘lmagan taqdirda, ko‘tarma lahimlari va ma’dan tushirgich joylarida, I va II toifadagi tog‘ jinslarida sochmabeton yoki anker bilan birgalikda, sim to‘rlardan va sochmabetondan yasalgan beton mustahkamlagichlar qo‘llaniladi.

I, II va III toifadagi barqaror tog‘ jinslarida  $8 \text{ m}^3/\text{soat}$  dan ortiq suv oqimlari bilan monolit beton mustahkamlagichdan foydalanish kerak. Shu bilan birga, barqarorlik I toifadagi tog‘ jinslarida stvolning kengaytirilgan uchastkalarida sochmabeton mustahkamlagichning qalinligi quyidagi [6-jadvalga](#) muvofiq hisob-kitobsiz olinadi.

Uchastkaning joylashish chuqurligi, m	6-jadval	
	Tog‘ jinslarining yuzaga kelish burchaklarida sochmabeton mustahkamlagichining qalinligi, mm	
	35° gacha	35° gacha
500 gacha	80	120
500 dan yuqori	100	150

Stvol birikmali o‘rnining qismlari uchun I toifadagi barqaror jinslarida, shuningdek stvolning kengaytirilgan qismlarida II toifadagi barqaror jinslarida sochmabeton mustahkamlagichning qalinligi mazkur ShNQ ning [5-ilovasiga](#) muvofiq hisoblab chiqilishi kerak. Shu bilan birga, sochma beton mustahkamlagichning qalinligi 150 m gacha chuqurlikda kamida 500 mm va 200 m dan ortiq chuqurlikda 500 mm bo‘lishi kerak.

Birlashtirilgan anker-sochmabeton mustahkamlagichda ankerlarning uzunligi  $l_a$  2 m ga; ankerlar orasidagi masofa  $l_a$  0,7 m ga teng bo‘lishi kerak. Tegishli asos bilan anker uzunligini va ular orasidagi masofalarni o‘zgartirish mumkin.

156. IV toifadagi barqaror jinslarida, stvolning bosimli suvlari bo‘lgan qismlarida, shuningdek kaliy va shunga o‘xhash konlarda tyubinglar, temir-beton, ko‘p qatlamlı tayanch va yetarlicha tog‘ jinsi barqarorligi bilan monolit beton tayanchdan foydalanish kerak. Tuz konlari, katta chuqurlikda, tegishli asos bilan, yetarlicha yuqori qarshilik yaratadigan, ammo hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan qattiq mustahkamlagich qarshiligidan kam bo‘lgan materiallarning egiluvchan tashqi qobig‘ini ta’minlash kerak.

157. Stvol va shurflarning kengaytirilgan qismini mustahkamlagichni hisoblash texnologik va o‘rnatish yuklarini hisobga olgan holda  $R_p$  massividagi jinslarning gorizontal (radial) bosimining va  $R_g$  yer osti suvlarining qoldiq bosimining umumiy ta’sirida amalga oshirilishi kerak.

158. Stvollarning gorizontal lahim va kameralar bilan birlashish o‘rnini loyihalashda hamda ularning stvollarga ta’sirini istisno qilishda stvol bo‘ylab barqarorligi II toifadagi tog‘ jinslariga kamida 30 m balandlikdagi tog‘ jinslariga stvol yaqinida ishlov berish kerak. III va IV barqarorlik toifalari kamida 50 m qattiq mustahkamlagich o‘rnatilishi kerak. Barqarorlik toifasi I jinslarida mustahkamlanish turi tartibga solinmaydi.

Stvololdi 10 m gacha bo‘lgan lahimlaridan I va II toifadagi barqaror jinslarida, III va IV toifadagi jinslarda 30 m gacha bo‘lgan tamponlash eritmalar bilan bo‘lakli toshlar bilan to‘ldiriladi.

159. Quyidagi **7-jadvalda** ko‘rsatilgan mustahkamlagichlar uchun keltirilgan qiymatlardan yuqori bo‘lgan ishlov berish yaqinidagi jinslarning kutilayotgan nisbiy deformatsiyalari qiymatlari bilan birga lahim va boshqa lahimlarning ta’sir zonalarida joylashgan vertikal lahimda, majburiy deformatsiyaga moslashtirilgan mustahkamlagichlarni yoki maxsus mustahkamlagichlarni himoya qilishning tarkibiy elementlari birgalikda bir qator tog‘ jinslari bilan barcha barqarorlik toifasidagi jinslarda ishlatilishi kerak.

Mustahkamlagich	7-jadval	
	Nisbiy vertikal deformatsiyalar, mm/m	
	siqilganda	Cho‘zilganda
Monolit	0,85	Ko‘tarish qobiliyat bo‘yicha 0,05
Monolit	0,85	Yoriqlarni ochish orqali 0,25
Yig‘ma	2,00	1,00

160. Stvolni mustahkamlashning tarkibiy elementlari stvol suv o‘tkazmasligining zarur darajasini hisobga olgan holda stvololdi massiv jinslarining kutilayotgan nisbiy deformatsiyalarini hisoblash asosida ishlab chiqilishi kerak. Shu bilan birga:

tog‘ jinslarning cho‘zilish deformatsiyalari **7-jadvalda** ko‘rsatilgan qiymatlardan oshib ketsa, gorizontal bo‘linuvchi choklar bir-biridan 15 m dan ortiq bo‘lmagan masofalarda, asosan kuchsiz jinslarning kesishishida ta’milanishi kerak;

tog‘ jinslarning siqilish deformatsiyalari **7-jadvalda** ko‘rsatilganlardan 15 mm/m gacha oraliqda bo‘lganda, gorizontal cho‘kindi choklar eng katta deformatsiya joylarida va kuchli va kuchsiz jinslarning kontaktlarida yoki himoya qilinadigan hududlarda mustahkamlagichni siljitim choralar bilan ta’milanishi kerak;

jinslarning siqilish deformatsiyalari 15 mm/m dan oshsa, cho‘kindi zonalar va katta vertikal muvofiqlik tugunlari ta’milanishi kerak;

gorizontal deformatsiyalar namoyon bo‘lsa, keyin hisoblash bilan asoslanadigan mustahkamlash va egiluvchan tuzilmalarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishni ta’minalash kerak.

161. Vertikal siqish deformatsiyalarini cho‘kindi choklar bilan qoplash uchun vertikal lahimdagи choklar orasidagi maksimal masofa mazkur ShNQ talablariga muvofiq hisoblanadi, lekin 20 m dan oshmasligi kerak. Cho‘kindi choklar egiluvchan materialdan tayyorlangan va agar kerak bo‘lsa, gidro va gaz izolatsiyasi hamda maxsus germetik tugunlar o‘rnatiladi.

Cho‘ktiruvchi choklar orasidagi maksimal masofa  $l$ , m, quyidagi (3) formula bilan aniqlanadi:

$$l = \frac{[(\gamma_m)^{-1}] \cdot R_{np} \cdot (D_1^2 - D_0^2)}{4 \cdot p_n \cdot f_{tp} \cdot D_1} \quad (3)$$

bu erda

$D_1$  — tog‘ kon o‘tish lahimi diametri (qoralamas), m;

$D_0$  — tog‘ kon o‘tish lahimi diametri (oqlamas), m;

$f_{tp}$  — tog‘ jinsining mustahkamlagich ishqalanish koefitsiyenti, 0,6-magmatik jinslar, qumtoshlar va ohaktoshlar uchun, 0,5-alyevrolit va argillit uchun va 0,4-ko‘mir va tuz jinslari uchun qabul qilingan;

$R_{pr}$  — QMQ 2.03.01-96 ga muvofiq qabul qilingan betonning siqilishga chidamliligi, kPa ( $ts/m^2$ );

$R_p$  — tog‘ jinslarining hisoblangan gorizontal radial bosimi, kPa;

$\gamma_m$  — GOST 27751-2014 yoki QMQ 2.03.01-96 bo‘yicha qabul qilingan mustahkamlash materiallari uchun ishonchlilik koeffitsiyenti.

162. Cho‘kmali chokning hisoblangan ish balandligi  $h_{sh}$ , mm, quyidagi (4) formula bilan aniqlanadi:

$$h_{sh} = 1,2 \cdot \frac{1000 \cdot \Delta\eta_r}{\sigma_i} \quad (4)$$

bu erda

$\Delta\eta_r$  — himoyalangan maydon chegaralarida cho‘kishning farqi, mm, formuladan  $\Delta\eta_r = \Sigma\varepsilon_{imi}$  aniqlanadi;

